va o‘zaro muvofiqlikka ham tayanadi. Aynan baton uzatish texnikasidagi kichik xatolar ko‘pincha musobaqa natijasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun estafetali yugurishda texnikani mustahkamlash mashg‘ulotlar tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib keladi.

Asosiy qism: Estafetali yugurishning mohiyati va tarixiy rivojlanishi Estafetali yugurish qadimiy Yunoniston davridan boshlab harbiy xabar yetkazuvchilar faoliyatida qo‘llanilgan bo‘lib, u zamonaviy sport shaklini XIX asr oxirlarida olgan (Karimov, 2019). Bugungi kunda estafetali yugurish Olimpiya o‘yinlarining asosiy yengil atletika turlaridan biri sifatida tan olingan. Musobaqaning eng muhim jihati – bu jamoaviy harakatning uyg‘unligi, yuguruvchilarning individual tezligi emas, balki baton uzatish jarayonining puxtaligi hisoblanadi. Estafetali yugurishda asosiy tamoyil “Tezlikni yo‘qotmasdan baton uzatish”dir. Agar sportchi tezligini bir necha soniyaga pasaytirsam ham, bu jamoaning umumiy natijasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, texnika va koordinatsiya strategik ahamiyatga ega.

Baton uzatish zonalari va ularning funksional ahamiyati. Baton uzatish jarayoni qat‘iy belgilangan uchta zona doirasida amalga oshiriladi: Estafetadagi baton almashinuvi ketma-ket uchta bosqichda amalga oshiriladi: avval qabul qiluvchi yuguruvchi tezlikni oshiradi, so‘ng baton bevosita qo‘ldan qo‘lga uzatiladi, va nihoyat baton olgan yuguruvchi maksimal tezlikka kiradi. Bu bosqichlarning har birida yuguruvchilar oldindan kelishilgan ritm va tana holatini saqlashlari zarur. Ushbu zonalarning har birida sportchilar harakatini oldindan kelishilgan signallar, qadam uzunligi, nafas ritmi va qo‘l holati bilan muvofiqlashtiradi. Ayniqsa 4×100 metr estafetada baton uzatish tezligi natijaning deyarli 60% ni belgilab beradi.

Baton uzatish usullari: Estafetali yugurishda baton uzatishning ikki asosiy usuli mavjud: 1. Ko‘rmay uzatish (orqaga qaramasdan uzatish) – yuqori tezlikli estafetalarda qo‘llanadi. Bu usulda qabul qiluvchi sportchi orqaga qarashni bajarib, tezlik yo‘qotmaslik uchun qo‘lning aniq holatini his qiladi (Abdullayev, 2021). 2. Ko‘rib uzatish – 4×400 metrda keng tarqalgan. Sportchilar bir-birini ko‘rib, barqaror va nazoratli baton almashinuvi amalga oshiradi. 3. Ko‘rmay uzatishda qo‘lning ochilish burchagi, tirsak holati, qo‘l kaftining qattiqligi va batonning yuqoridan yoki pastdan uzatilishi juda muhim. 4. Texnikani mustahkamlash mashqlari. Estafetali yugurish texnikasini mustahkamlashda quyidagi mashqlar samarali hisoblanadi: Qisqa masofalarda (10–30 metr) baton bilan tezkor yugurishlar; Baton almashish zonasini belgilangandan so‘ng segmentar mashqlar (Xolmo‘minov, 2018); Start reaksiya tezligini oshirish uchun plyometrik mashqlar; “Soat bo‘yicha baton uzatish” koordinatsion mashqi; Tezlikni pasaytirmasdan yugurish ritmini saqlash bo‘yicha

juftlik mashqlari. Mazkur mashqlar sportchilarda quyidagi jismoniy sifatlarni rivojlantiradi:

- Tezkorlik va eksploziv kuch
- Hayvoniy koordinatsiya (harakat uyg'unligi)
- Reaksiya tezligi

Jamoaviy mas'uliyat va sport intizomi

Jamoaviy uyg'unlikning psixologik omillari: Estafetali yugurishda sportchilar o'rtasidagi ishonch hal qiluvchi rolga ega (Rasulov, 2022). Jamoa ichida yetakchi sportchilar boshqalarni rag'batlantiradi, mashg'ulotda bir-birining ritmini his qilishga o'rgatiladi. Murabbiy psixologik moslashuv, rag'batlantirish texnikasi va o'zaro qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, estafetali yugurish samaradorligi sportchining individual tezligidan ko'ra ko'proq jamoaviy uyg'unlik, baton uzatish texnikasi va koordinatsion moslashuvga bog'liqdir. To'g'ri mashg'ulot tizimi, texnik ko'rsatmalarni puxta o'zlashtirish va psixologik uyg'unlik natijada startdan marragacha yuqori tezlikni saqlab qolish imkonini beradi. Estafetali yugurish mashg'ulotlarini ilmiy asoslangan metodlar bilan olib borish jamoaning sport natijalarini barqaror va bir maromda o'sishini ta'minlaydi. Estafetali yugurish samaradorligi sportchining individual tezligi bilan belgilanmaydi. Unda *asosiy natija teknika + muvofiqlik + ishonch* uchligiga tayanadi. Baton almashish zonalarini to'g'ri tashkil qilish, mashg'ulot dasturlarida koordinatsion va tezlik mashqlarini keng qo'llash natijada startdan marragacha barqaror yuqori tempni saqlash imkonini beradi. Shuningdek, sportchilarning psixologik uyg'unligi jamoaviy harakatning ajralmas omili sifatida doimiy e'tibor markazida bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Karimov A. Yengil atletika asoslari. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019.
2. Ibrohimov B. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Toshkent: TDPU, 2020.
3. Abdullayev D. Sport trenirovkasi jarayonida koordinatsiya. Samarqand, 2021.
4. Xolmo'minov M. Yugurishda start texnikasini rivojlantirish. Termiz, 2018.
5. Rasulov Sh. Sport jamoalarida psixologik uyg'unlik. Buxoro, 2022.

BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHNING METODIK ASOSLAR

Termiz davlat Pedagogika institute Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi 1-kurs magistranti

Panjiyeva Xaniza Bobir qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda STEAM ta'lim texnologiyasining o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim texnologiyalari, zaumonaviy ta'lim, integratsiya, STEAM yondashuvi, kreativlik.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqishlarini va turli fanlarga bo'lgan qobiliyatlarini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishini talab etadi.

Jahonda ta'limni modernizatsiya qilish va yangilash yo'llaridan biri STEAM ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Uni amalga oshirishning asosiy maqsadi o'qituvchi va talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda STEAM tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish asosida, texnik va tabiiy fanlar ta'limini rivojlantirish orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar imkoniyatlarini kengaytirishdir.

STEAM ta'lim texnologiyasi ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi ta'lim bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandSTEAM xalqaro baholash dasturi tadqiqoti o'quvchilarning quyidagi sohalarda hamda fanlarda

ko'nikmalarni tekshiradi: a) o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha yetuk bilimiga egaligi;

b) o'quvchilarning texnologiyalarni o'zlashtirish ko'nikmasiga egaligi;

v) o'quvchilarning qurilish hamda muhandislikixtirochilik uquviga egaligi;

g) o'quvchilarning san'atni tushunishi va ijodiy layoqatga egaligi;

d) o'quvchilarning matematik savodxonligini

yuqori darajaga ega ekanligi.

Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchilarda ana shu asoslar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish asoslari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas.

STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari «uqib oladilar». Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'sha haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir. Pedagog har bir darsni qiziqarli qilib o'tishga harakat qilishi lozim. Har bir darsni hayotga bog'lab va dars yakunida xulosalar chiqarib olishlari uchun talabalarga imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga, ega. Maktab bilan bog'lash kerak, chunki ular ertaga shu maktab ostonasiga borib bolalarga olgan bilimlarini berishadi. Endi tabiatshunoslik darslarida mavzularni STEAM yondashuvi asosida o'tish yo'llari haqida to'xtalib o'tsak.

“Tabiatshunoslik” fanini o'qitishda STEAM texnologiyasini qo'llasak, bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

STEAM texnologiyasidagi S harfi fanni bildiradi. Bunda o'quvchilar nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. 2-sinf tabiiy fanida Yer – sayyora mavzusi berilgan. Bu mavzuni o'rganishda o'quvchilar nazariy bilim bilan birga amaliy mashg'ulot ham o'tkazishadi. O'quvchilar yer shari, quyosh modelini yasashadi. Bu bilan ular yer shari quyosh atrofida aylanishini amaliy bilib oladilar shu bilan birga yer sharining global muammolarini bartaraf etish choralarini o'ylab topishadi. Biz shu mavzu asosida o'quvchilarni bilishga, fikrlashga, mustaqil ishlashga, ijodkorlikka qobiliyatlarini

ochishimiz ham mumkin. Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyalarni o'quv dars mashg'ulotlarida qo'llashda ta'lim samarali rivojlanish, o'zgarish, takomillashish, andoza olish xususiyatlarini o'z ichiga olib, ta'lim o'z navbatida rivojlantiruvchi omillarni qo'llash, ilmiy asosdan foydalanish mezonlariga bevosita bog'liq. Shu boisdan, ta'limning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, olinganda maktab ta'limi boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodlari, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari misolida o'quv samaradorligi natijalarini olishga qaratilgan ushbu maqola hozirgi kunda mukammal dars o'quv mashg'ulotida ilmiy yondashuv shakllari, texnologiya turlari, injenerlik mahorati, san'at va matematik metodlar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish orqali o'quvchilar o'zlashtirish darajasini oshirish, mehnat, kasbga yo'naltirishning metodik tahlil natijalarini shakllantirish maqolaning metodik vazifasini aks etadi. Jumladan, boshlang'ich ta'limda matematika fani misolida o'quvchilarni STEAM integratsion metod asosidagi o'quv faolligini oshirishdagi bir qator metodlarini keltirib o'tamiz. STEAM texnologiyasi asosida aniq fanlar va tabiiy fanlarni o'qitish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy va mehnat faoliyatidagi miqdor ko'rsatkichlaridan to'g'ri foydalanish orqali samarali natijalarga erishish tobora yangilanib borayotgan texnologik ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori natijaga erishish va bu orqali iqtisodiy manfaatdorlikka erishish STEAM texnologiyalarining zamonaviy afzalligini aks ettiruvchi xususiyatidir.

Hozirgi kun STEAM texnologiyasi ko'rsatkichlaridan samaradorlik ta'lim natijalariga erishish maqsadida foydalanish boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida aqliy tafakkurni shakllantirish, kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan mehnat munosabatlarini qiymatini to'g'ri baholash, iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish, iqtisodiy faoliyatni to'g'ri tashkil etish orqali mehnat munosabatlarini to'g'ri boshqarish kabi bir qator ijobiy natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti avozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – "O'zbekiston", 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli qarori.
3. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008 yil.
4. G. Yeldasheva, G. Karimova-Ta'lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmuasi. Toshkent. 2018 yil.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLATLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR: FALSAFIY TAHLIL

Paxriddinova D

Farg‘ona davlat univeristeti
akademik litsey tarix fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab millatlararo munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning falsafiy tahlili yoritilgan. Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik tamoyillari mamlakatda olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada falsafaning ijtimoiy integratsiyadagi o‘rni, insonlararo muloqotning axloqiy asoslari, madaniyatlararo dialogning milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri tahlil etiladi. Mustaqillik yillarida millatlararo munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi — “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasining falsafiy poydevori sifatida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: millatlararo munosabatlar, falsafa, bag‘rikenglik, totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, madaniyatlararo muloqot, Yangi O‘zbekiston, identifikatsiya, ijtimoiy integratsiya, milliy siyosat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются становление, этапы развития межэтнических отношений и их философский анализ со времен обретения Узбекистаном независимости. Принципы межэтнического согласия и толерантности рассматриваются как одно из основных направлений проводимых в стране политических, социальных и духовных реформ. В статье анализируется роль философии в социальной интеграции, нравственные основы межличностного общения, влияние межкультурного диалога на национальную безопасность и социальную стабильность. Подъем межэтнических отношений на новый уровень в годы независимости объясняется как философская основа идеи “Нового Узбекистана”.

Ключевые слова: межэтнические отношения, философия, толерантность, гармония, социальная стабильность, межкультурный диалог, Новый Узбекистан, идентичность, социальная интеграция, национальная политика.

ANNOTATION

This article examines the formation, stages of development of interethnic relations and their philosophical analysis since the independence of Uzbekistan. The principles of interethnic harmony and tolerance are considered as one of the main directions of political, social and spiritual reforms carried out in the country. The article analyzes the role of philosophy in social integration, the moral foundations of interpersonal communication, and the impact of intercultural dialogue on national security and social stability. The rise of interethnic relations to a new level during the years of independence is explained as the philosophical basis of the idea of a “New Uzbekistan.”

Keywords: interethnic relations, philosophy, tolerance, harmony, social stability, intercultural dialogue, New Uzbekistan, identity, social integration, national policy.

KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy-falsafiy rivojida millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik masalasi alohida e‘tiborga sazovor bo‘ldi. Chunki respublikamiz ko‘p millatli, turli madaniyat va din vakillari birgalikda yashaydigan o‘ziga xos ijtimoiy makondir. Bu xilma-xillik, bir tomondan, ijtimoiy boylik manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy munosabatlar tizimida muvozanat va hamjihatlikni ta‘minlash zaruratini keltirib chiqaradi. Shu boisdan ham millatlararo munosabatlarni falsafiy tahlil qilish – zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy barqarorligi va ma‘naviy yuksalishining muhim nazariy asosini tashkil etadi.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “Tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot garovi” tamoyili bilan uzviy bog‘liqdir. Bu siyosiy-falsafiy yondashuv mustaqillik yillarida davlat siyosatining asosiy ustunlaridan biriga aylandi. Shuningdek, hozirgi davrda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan “Yangi O‘zbekiston – yangicha tafakkur” konsepsiyasi ham millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash, turli millat va elat vakillarining huquqiy hamda ma‘naviy tengligini ta‘minlashga qaratilgan islohotl

Bugungi globallashuv davrida millatlararo munosabatlar masalasi nafaqat siyosiy, balki falsafiy tahlilni ham talab qilmoqda. Chunki turli millat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, muloqot va hamkorlik madaniyati insoniyat sivilizatsiyasining eng yuksak qadriyatlari – insonparvarlik, adolat va tinchlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Falsafiy yondashuv shundan iboratki, millatlararo totuvlik nafaqat ijtimoiy siyosat natijasi, balki inson ongining, axloqiy qadriyatlarning, ma‘naviy dunyoqarashning ifodasidir.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, millatlararo totuvlikni ta‘minlashda ma‘naviyat, ta‘lim, madaniyat va ijtimoiy institutlarning roli beqiyosdir. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada mustaqillik davridagi millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, ularning milliy g‘oya va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi.

1. Millatlararo munosabatlarning falsafiy mohiyati

Falsafiy nuqtayi nazardan millatlararo munosabatlar — bu insoniyatning ijtimoiy birlikka, totuvlikka va adolatli jamiyat qurishga intilishining ko‘rinishidir. Forobiy “Fozil shahar ahli” asarida turli millat va elat vakillari bir-birini tushunishi, o‘zaro hurmatda yashashi orqali jamiyat “fozil” maqomga erishadi, deya ta‘kidlaydi[2, b. 58]. Kant esa “Umumjahon tinchlik loyihasi” asarida millatlararo totuvlikni insoniyatning axloqiy takomili bilan bog‘laydi[3, b. 41]. Shu ma‘noda, millatlar o‘rtasidagi munosabatlar — bu faqat siyosiy jarayon emas, balki ma‘naviy va axloqiy uyg‘unlikning falsafiy muammosidir.

Mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekiston jamiyatida “ko‘p millatli birlik” g‘oyasi nafaqat siyosiy, balki falsafiy-ma‘naviy qadriyat sifatida shakllandi.

2. Mustaqillik davrida millatlararo totuvlik siyosatining shakllanishi

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida” asarida “millatlararo totuvlik — bu bizning eng katta boyligimizdir” deya ta‘kidlagan[4, b. 96]. Shu davrda davlat siyosati har bir millat vakilining tili, madaniyati, urf-odatlarini hurmat qilinishiga yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida “barcha fuqarolar irqi, tili, dini va millatidan qat‘i nazar teng huquqlidir” degan prinsip[5, modda 18] millatlararo barqarorlikning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi.

Shu bilan birga, “Do‘stlik uylari”, “Millatlararo madaniyat markazlari”, “O‘zbekiston xalqaro madaniyatlar festivali” kabi tashabbuslar millatlararo do‘stlikni mustahkamladi.

3. Millatlararo bag‘rikenglikning ma‘naviy-falsafiy asoslari

Islom dini, turkiy va o‘zbek falsafiy merosi bag‘rikenglikni insoniy kamolotning asosi sifatida ko‘rsatadi. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da insonlar orasidagi totuvlikni ilohiy qadriyat sifatida talqin etadi[6, b. 121].

Bugungi O‘zbekiston jamiyatida bag‘rikenglik — bu faqat murosa emas, balki o‘zga madaniyat va fikrni hurmat qilish orqali o‘zini anglashdir. Bu falsafiy jihatdan “muloqot madaniyati” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Martin Buberning “Men va Sen” konsepsiyasi asosida qaralganda, millatlararo munosabatlar — bu “boshqa”ni dushman emas, balki inson sifatida qabul qilish holatidir[7, b. 84].

4. Millatlararo birlikning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati

Millatlararo totuvlik ijtimoiy barqarorlik, siyosiy ishonch va madaniy uyg'unlikni ta'minlaydi. Hozirgi kunda O'zbekistonning "Yangi O'zbekiston — yangi tafakkur" konsepsiyasi millatlararo hamjihatlikni milliy g'oya darajasiga ko'tardi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida shunday deydi:

"Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik — bu bizning kelajagimizning poydevoridir"[8, b. 33].

Demak, millatlararo munosabatlarning falsafiy mohiyati — insoniyatni yagona qadriyatlar, umumiy ezgulik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida birlashtirishdadir.

5. Xulosa

Mustaqillik yillarida O'zbekiston millatlararo totuvlik siyosatini falsafiy asosga qurdi. Bu jarayon insonparvarlik, vijdon erkinligi va madaniy xilma-xillikni uyg'unlashtirgan yangi ijtimoiy ongni shakllantirdi.

Falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, millatlararo munosabatlarning barqarorligi — bu faqat siyosiy yutuq emas, balki insoniyatning ma'naviy yuksalish darajasidir. Shu bois, millatlararo totuvlik falsafasi kelajakda ham O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. *Инсон қадри учун*. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. 320 b.
2. Forobiyus A. *Fozil shoag ahli*. - Toshkent: Fan, 1993 Yil. 128 b.
3. Kant I. *Zum ewigen Frieden*. — Berlin: Akademie Verlag, 1968. — 102 p.
4. Каримов И.А. *Ўзбекистон XXI аср бўсағасида*. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. 256 b.
5. *Ўзбекистон Республикаси Конституцияси*. - Toshkent: Adolat, 2023. 78 b.
6. Навоий А. *Маҳбуб ул-қулуб*. - Toshkent: Fan, 2000 Yil. 192 b.
7. Buber M. *Ich und Du*. — Leipzig: Insel Verlag, 1923. — 146 p.
8. Мирзиёев Ш.М. *Янги Ўзбекистон стратегияси*. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. 304 b.

INTERNATIONAL TREATIES – THE CHALLENGES OF THE MULTILATERAL TREATY SYSTEMS

Elbek Khasanov

LLB, Tashkent State University of Law

LL.M., Pennsylvania State University

Independent Comparative Law Researcher

ANNOTATION

This article analyzes the challenges of multilateral international treaty-making. It focuses on key issues such as implementation, state consent, conflicting interests, and ratification processes. The author emphasizes that effective treaty-making requires harmonization of domestic norms, sufficient resources, political will, and coordination among states. The study highlights the difficulties in achieving agreements that serve both national and international interests and stresses the need for collaboration and shared commitment among the international community to ensure successful treaties.

INTRODUCTION

There are perhaps few areas of international law where confusion and clarity reign supreme more than that of the sources (Van Hoot, 1983). The Statute of the International Court of Justice has formalized the sources of international law¹.

Article 38 of the Statute provides that:

The Court, whose function is to decide in accordance with international law such disputes as are submitted to it, shall apply:

- (a) international conventions, whether general or particular, establishing rules expressly recognized by the contesting States;*
- (b) international custom, as evidence of a general practice accepted as law;*
- (c) the general principles of law recognized by civilized nations;*
- (d) subject to the provisions of Article 59, judicial decisions and the teachings of the most highly qualified publicists of the various nations, as subsidiary means for the determination of rules of law.*

¹ See more at Statute of the International Court of Justice, 24 October 1945. <https://www.icj-cij.org/en/statute> ² See more at Vienna Convention on the Law of Treaties, 1969. UN Treaty Series Vol. 1155,1-18232 Article 2. 1.

(a)

Customary international law (state practice) and international conventions (treaties) are the legal basis for multilateral treaty making. In the area of treaty law, two important international conventions have been accepted:

- 1) the Vienna Convention on the Law of Treaties, 1969
- 2) the Vienna Convention on the Law of Treaties between International Organizations and States, 1986

According to the Convention², a treaty means *an international agreement concluded between States in written form and governed by international law, whether embodied in a single instrument or in two or more related instruments and whatever its particular designation.*

In this paper, the challenging aspects of international treaty making are analyzed through different perspectives. Among the contractual issues of international law three major and common problems are studied which challenge states to make effective international treaties.

Issues of implementation

In international legal practice, the phrase “implementation” is commonly used (Current international law, 2007). This term can be found in UN General Assembly and other UN bodies’ resolutions, as well as resolutions from other international organizations. In dictionaries, implementation is defined as “fulfillment of international and domestic law norms on the execution of international law norms; it also includes the creation of conditions for such fulfillment at international and domestic standards (Webster’s Encyclopedic Unabridged Dictionary of the English Language, 1996).

It is important to point out that national remedies used for the realization of international law include: the normative statements of general character regulating the relation between international and domestic law, and the conclusion, execution and denunciation of international treaties, and also, determining the competency of state bodies in the field of the implementation of international law; national legal statements adopted in order to ensure the realization of the international obligation occurring from certain international treaties; legal guaranteeing activity of state bodies related to the implementation; national law application experience (Shelton, 2015).

Governments appear to have vast powers in the study of forms and techniques, as well as in determining when rights and freedoms will be implemented in this circumstance. Uncertainty in identifying the norms for implementing these treaties is linked to a wide range of opportunities (various levels of economic and political

development) for each state party to apply the terms of the treaties on its own territory.

There are also some issues related to some spheres of international rule making where typical challenges occur. For instance, the majority of post-Soviet countries have similar challenges in incorporating international human rights norms into their legal systems (Litvinova & Glushkova, 2016). As a result, academics underline that creating effective (rather than bureaucratic) state institutions for human rights protection is also an issue.

National wealth is also to be noted that the ability of a country to implement with often severe treaty obligations is boosted by its wealth. The implementation process leading to domestic appliance is likely to be facilitated if the resources to achieve these objectives are available, as well as the political will to do so.

Finally, because of the expenses and risks of drafting a treaty, it is clear that drafting agencies are focusing their efforts on other ways to harmonize legislation.

UNIDROIT and UNCITRAL's current work programs emphasize non-State rules as a means of harmonization.² However, the existence of successful conventions suggests that it may be desirable to embark on such a project, assuming enough stakeholder support.

Problem of consent in multilateral treaty making

When global issues occurred, special changes might be made, usually in compliance with consent requirements. Even in circumstances where international disputes were uncommon, clearer coordination between states was occasionally required. States should be able to cohabit peacefully if they can establish a consensus on regional and international issues.

However, states have to prove that living in cooperation is preferable to living in a state of conflict. The mechanism's complexity is due in part to the necessity for "transfers" between the participants, and it was designed to establish consensus. The Peace of Westphalia is a good example of a negotiated agreement and a sequence of transfers between sworn foes that resulted in a better situation for all sides. However, it demonstrates how difficult it is to overcome transaction costs on a global scale. Peace was eventually reached, but only after decades of horrific bloodshed (Andrew, 2011).

The practice of using transfers to get an assent of the parties involved has some similarities like domestic law. In domestic law, however, no one would argue that a

² See more at UNCITRAL working programme: https://uncitral.un.org/en/working_groups; UNIDROIT working programme: <https://www.unidroit.org/about-unidroit/work-programme>

contract can solve every significant problem. It is clear that some forms require a government with the authority to make decisions on behalf of citizens. Government should be responsible for national defense, public order (such as police and internal affairs), public services (such as roads), and other functions. However, there is a contradiction, this contrasts with the reality of the international system, where nothing can be termed a government with any certainty (Watson, J. (1992). There is no legislative or authority that can compel governments to operate in a way that promotes the common good.

States' collective decision-making is still a consent-based procedure (Andrew, 2011). Some issues of multilateral treaty making might be solved easily in turn, even if it requires the consent. The clear illustration for this can be those situations in which states have common interests. Through this way, each state will act as necessary to solve the problem. These issues are simple to resolve that they can hardly be described as "problems." Sweden and Bolivia, for example, have no desire to use force against one another. They share a desire to keep the peace.

Another type of problem, known as coordination issues, is equally simple to solve without jeopardizing the principle of consent. These are instances where states want to collaborate but can't agree on how to do so. The Warsaw Convention, for example, harmonizes requirements on everything from safety to luggage marking.³ When the parties' interests aren't so well matched, things become more complicated. The prisoner's dilemma is the archetypal example of competing interests. In these cases, a solution requires that states behave differently than they would in the absence of cooperation. Attempts to solve such problems can fail for a variety of reasons, including a failure to acquire one or more states' approval. This was the situation with the Mine Ban Treaty of 1997, which outlawed all antipersonnel landmines.⁴ Despite the fact that many states signed the pact, several, notably the United States, declined because the conditions did not serve their interests (Koh, 1998).

In these cases, failure to reach an agreement might be regarded as an inability to overcome transaction costs. If transfers were available, for example, to address circumstances such as the Mine Ban Treaty, individuals who stood to gain the most from the agreement (or those who are most enthusiastic about the deal) may transfer

³ The "Warsaw System" for international air carrier liability consists of the following instruments: Convention for the Unification of Certain Rules Relating to International Transportation by Air, Oct. 12, 1929

⁴ U.N. Convention on the Prohibition of the Use, Stockpiling, Production and transfer of Anti-Personnel Mines and on their Destruction, open for signature Sept. 18, 1997 (entry into force Mar. 1, 1999) (<http://www.unhcr.org/refworld/docid/3ae6b3ad0.html>).

value in some manner to those who stood to lose. Nonetheless, the failure to persuade others to join might be regarded as a failure to identify and offer sufficient transfers to persuade non-participants that it is in their best interests.

Ratification

There is another type of challenge of ratification of international treaties which is linked with complicated procedures of domestic legal systems. Ratification of international treaties is easier if the required modifications in domestic law are limited. States wish that international law mirror their own legal norms. States can use treaties as a tool to promote national legal solutions. International law is imprisoned by the state as Ralph Amissah calls it (Amissah, 2000). The 2001 United Nations Convention on the Assignment of Receivables in International Trade (which has been ratified by one State) experienced a number of problems, one of which was that most States needed to make considerable adjustments to bring the Convention into compliance with domestic law (Boss, 2007).

As for challenges connected with political systems, the European governments have been a mix of pluralistic and autocratic political systems, with varying rates of economic growth and legal systems. It is possible that the ratification negotiations in these various political systems go in quite different directions. Because of the accompanying public debate and negotiations, open pluralistic systems are predicted to cause deadlocks and delays in ratification of international agreements. Highly centralized and closed regimes, on the other hand, can quickly ratify treaties if they are deemed to be in the national interest (Spector & Korula, 1993).

The level of public concern about particular issue areas varies by country.

Furthermore, public attention is likely to differ depending on whether the most important global challenges are local or international in scope. When public awareness about particular issue is high, public pressure on parliamentary organizations charged with ratifying international treaties can be effectively mobilized (Spector & Korula, 1993). This pressure, in the form of catalytic beginning activities, lobbying, education, and implementation help, can be a beneficial influence in lowering ratification time and other hindering.

In corporation with above challenges, the number of actual issues of ratification exists such as proliferation of clauses that prevent the extension of protection beyond that provided by domestic law; the refusal for internal purposes of dynamic interpretation of treaty texts and the rejection by national institutions of such an interpretation by international judicial authorities, resulting in a distortion of the treaty's meaning; the elimination of the contract's self-executing nature without enacting implementing legislation.

Conclusion

There are common challenges in multilateral treaty system to. Primarily, there are many situations in which parties with essentially conflicting interests can come to a treaty by exchanging interests. In addition, governments are frequently unable to overcome the issues such as harmonization of domestic norms, sufficient resources, the will to enter into treaty. However, every member of the international community expresses their own interests and needs which have to be met in good manner. At the same time, there are narrow interests and internal standards in treaty conclusion at the expense of the interests of all members of international society. These reason, particularly, cause states to fail in achieving effective international treaties. All of this suggests that nations should devote resources and experience to reach a common will.

References

- [1] Vienna Convention on the Law of Treaties, UNCTC. (1969). www.treaties.un.org, Retrieved 2022, https://treaties.un.org/pages/ViewDetailsIII.aspx?src=TREATY&mtdsg_no=XIII1&chapter=23&Temp=mtdsg3&clang=_en
- [2] Vienna Convention on the Law of Treaties between International Organizations and States, UNCTC. (1986). www.treaties.un.org, Retrieved 2022, https://treaties.un.org/pages/ViewDetails.aspx?src=TREATY&mtdsg_no=XXIII-3&chapter=23&clang=_en
- [3] Statute of the Court | International Court of Justice. (1945). www.icj-cij.org, Retrieved 2022, <https://www.icj-cij.org/en/statute>
- [4] Fifty-ninth Session (2007) — International Law Commission. (2007b). www.legal.un.org. Retrieved 2022, <https://legal.un.org/ilc/sessions/59/>
- [5] Fias, Z., Sulyok, M. & Aniko S., (2019) Interstate relations, *Iurisperitus Kiadó*, University of Szeged
- [6] Gowlland-Debbas, V., (1998). Multilateral treaty making: the current status of challenges to and the reforms needed in the international legislative process, *American society of international law*.
- [7] Koh, H., (1998). The 1998 Frankel Lecture: Bringing International Law Home, 35 *HOUS.L.REV.*
- [8] Van Hoot, G., (1983). Rethinking the Sources of International Law, *Kluwer Law and Taxation Publishers*

- [9] Watson, J. (1992). State Consent and the Sources of International Obligation. *Proceedings of the ASIL Annual Meeting*, 86, doi: <https://10.1017/S027250370009443X>
- [10] Random House Value Publishing, (1996). Webster's Encyclopedic Unabridged Dictionary of the English Language, *Gramercy Books*, 2 ed.
- [11] Guzman, A., (2011). The Consent Problem in International Law. www.scholarship.org https://escholarship.org/uc/item/04x8x174#article_main
- [12] Guzman A. & Simmons, B., (2002) To Settle or Empanel? An Empirical Analysis of Litigation and Settlement at the WTO, 3 J. *LEG.STUD.* 205
- [13] Litvinova, I. & Glushkova, I. (2016). Human rights in Russia and the world: Development Strategies, Problems, Solutions. *The review of the Liberal Arts University*, (1)
- [14] Hoekstra, J., (2021). Political barriers in the ratification of international commercial law conventions, *Uniform Law Review*, Vol. 26, N. 1, <https://doi.org/10.1093/ulr/unab003> [15] Amissah, R., (2000). 'Revisiting the Autonomous Contract—Transnational Contract Law Trends and Supportive Structure' in Ian F Fletcher, Loukas Mistelis, L. and Cremona, M. (editors), *Foundations and Perspectives of International Trade Law*
- [16] Boss, A., (2007). 'The Future of the Uniform Commercial Code Process in an Increasingly International World', *Ohio State Journal*
- [17] Spector, B., & Korula, A., (1993) Problems of ratifying international environmental agreements Overcoming initial obstacles in the post-agreement negotiation process, *Global Environmental Change*, Butterworth-Heinemann Ltd.
- [18] International Economics. (2019, July 18). Challenges for Implementing the Trade Facilitation Agreement. https://www.tradeeconomics.com/iec_publication/challenges-trade-facilitationagreement/
- [19] <https://uncitral.un.org/>
- [20] <https://www.unidroit.org/>

O‘ZBEKISTONDA AUTIZM DIAGNOSTIKASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasida v.b dotsent

B.T.To‘raxonova

*Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika (logopediya) yo ‘nalishi
magistratura bosqichi talabasi Ataxodjayeva Oyshaxon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida autizm spektr buzilishlarini (ASB) diagnostikasi sohasining hozirgi holati, shuningdek, ushbu sohaning rivojlanishidagi muammolar va istiqbollar tahlil qilinadi. Tadqiqot V. Kaganing “Аутизм у детей” (1981) asosi va “Maxsus pedagogika” (2020) darsligiga tayangan holda amalga oshirilgan. Maqolada diagnostikaning psixologik va pedagogik jihatlari, erta aniqlash masalalari hamda mutaxassislarni tayyorlash muammolari ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatdagi diagnostika tizimi rivojlanmoqda, lekin u yanada standartlashtirish, multidisiplinar hamkorlik va jamiyat xabardorligini oshirishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: autizm, diagnostika, ASB, Kagan, maxsus pedagogika, erta aniqlash, O‘zbekiston.

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние диагностики расстройств аутистического спектра (РАС) в Узбекистане, а также проблемы и перспективы развития данной сферы. Исследование основано на классической работе В. Кагана «Аутизм у детей» (1981) и учебнике «Специальная педагогика» (2020). Рассматриваются психологические и педагогические аспекты диагностики, вопросы раннего выявления и подготовки специалистов. Результаты показывают, что система диагностики в стране развивается, но требует дальнейшей стандартизации, междисциплинарного взаимодействия и повышения осведомленности общества.

Ключевые слова: аутизм, диагностика, РАС, Кagan, специальная педагогика, раннее выявление, Узбекистан.

Annotation: This article analyzes the current state of autism spectrum disorder (ASD) diagnostics in Uzbekistan, focusing on challenges and future development prospects. The study is based on V. Kagan’s work "Autism in Children" (1981) and the textbook "Special Pedagogy" (2020). Psychological and pedagogical aspects of diagnostics, early detection, and professional training are discussed. The findings indicate that the diagnostic system is developing, but further standardization, interdisciplinary collaboration, and public awareness are needed.

Keywords: autism, diagnostics, ASD, Kagan, special pedagogy, early identification, Uzbekistan.

Kirish:Autizm spektr buzilishlari (ASB) bolalarning ijtimoiy, nutqiy, emotsional va kognitiv rivojlanishida sezilarli farqlar bilan namoyon bo‘ladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2022) ma‘lumotlariga ko‘ra, ASB global miqyosda ortib bormoqda. Bu holat O‘zbekistonda ham aholi orasida sezilmoqda, ammo tizimli ilmiy tadqiqotlar nisbatan so‘nggi yillarda boshlangan. Kagan (1981) autizmni aniqlashda asosiy belgilar sifatida ijtimoiy muloqot yetishmovchiligi, nutq kechikishi, stereotip xatti-harakatlar va emotsional javoblarning pasayishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvlar (“Maxsus pedagogika”, 2020) bolalarning o‘qish, adaptatsiya va rivojlanishini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda autizmni aniqlash ko‘pincha klinik kuzatuv va psixologik testlar asosida amalga oshiriladi. Biroq, erta diagnostika yetarli emas, ko‘pchilik bolalar 4–6 yoshdan keyin tashxislanadi. Bu yoshdagi kechikish bolalarning ijtimoiy va nutqiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiladi. Shuningdek, mutaxassislar yetishmovchiligi diagnostika sifatini cheklaydi. Maxsus pedagoglar, psixologlar va logopedlar soni yetarli emas, bu esa bolalarning vaqtida aniqlanishi va rehabilitatsiya imkoniyatlarini kamaytiradi. Standart testlar ham barcha hududlarda keng qo‘llanilmaydi. ADOS-2, CARS va M-CHAT testlari mavjud bo‘lsa-da, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish va o‘rgatish ishlari hali to‘liq amalga oshirilmagan. Jamiyatdagi noto‘g‘ri tushunchalar va stigma ham diagnostikani qiyinlashtiradi. Ota-onalar psixologga murojaatni kechiktiradi, bu esa erta diagnostika imkoniyatlarini cheklaydi.

Kagan (1981) modeli klinik psixologik diagnostikani asos qilib oladi, unda ijtimoiy-emotsional kuzatuv va nutq rivojlanishi muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, “Maxsus pedagogika” (2020) darsligi bolalarning ta‘lim jarayonidagi individual xususiyatlarini, sensor integratsiya va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini baholash zarurligini ta‘kidlaydi. Bu ikki yondashuvni birlashtirish diagnostikani yanada samarali qiladi. Faqat klinik diagnostika emas, balki pedagogik kuzatuv ham bolalarning individual ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, korreksion mashqlar va o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

World Health Organization (WHO) ma‘lumotlariga ko‘ra, autizm spektr buzilmalari bir guruh neyro-rivojlanish buzilishlari bo‘lib, ularning asosiy xususiyati — miyaning rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar, ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalardagi og‘ishlar. Bu — global muammo, va O‘zbekiston ham shundan chetda emas. Demak, mahalliy sharoitda diagnostik tizimni xalqaro standartlar bilan solishtirib ko‘rish zarur.

O‘zbekistonda autizm diagnostikasini takomillashtirish uchun bir nechta yo‘nalishlar mavjud. Erta diagnostika tizimini rivojlantirish zarur, chunki Kagan (1981) ta’kidlashicha, 2–3 yoshdan autizm belgilarini aniqlash mumkin. Bu bolalarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, multidisiplinar mutaxassislar tayyorlash muhim hisoblanadi. Pedagog, psixolog va logopedlarning hamkorligi diagnostika sifatini oshiradi. Hozirgi kunda bu sohada mutaxassislar yetarli emas. Testlarni standartlashtirish va mahalliy sharoitga moslashtirish ham istiqboldagi vazifalardan biridir. Bu ADOS-2, CARS va M-CHAT kabi diagnostik vositalarning samaradorligini oshiradi. Jamiyatda autizmga oid noto‘g‘ri tushunchalarni kamaytirish va ota-onalarni xabardor qilish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali bolalar va oilalar uchun erta qo‘llab-quvvatlash tizimi samarali ishlashi mumkin. Natijada, autizm diagnostikasini rivojlantirish bir vaqtning o‘zida klinik, pedagogik va ijtimoiy yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Masalan, “Autizm sindromli bolalar” ba’zi manbaalarda autizimli bolalarning kognitiv va emotsional xususiyatlari, diagnostika va amaliy yordam masalalari tahlil qilingan. – Boshqa bir maqola — Autizm spektining buzilishi diagnostikasida gender farqlar — diagnostika jarayonida jinsiy farqlar, simptom namoyon bo‘lishi va jamiyatdagi stereotiplar masalalarini ko‘rib chiqadi; bu mintaqaviy muammo bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, Autizm sindromi va uning turlari Asperger sindromi nomli maqola autizm turli shakllarini, ularning klinik va psixologik belgilarini, turli turlar farqlarini yoritadi — bu diagnostika va tadqiqot uchun asos bo‘lishi mumkin

So‘nggi yillarda mintaqaviy hamkorlik va hamjihatlik orqali psixologik salomatlik, jumladan, autizm bilan bog‘liq masalalarni ko‘tarish bo‘yicha tashabbuslar mavjud. Masalan, UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlar Markaziy Osiyo davlatlarida psixologik salomatlik va stigmani kamaytirish bo‘yicha kampaniyalarni boshlagan. Bu esa MDH davlatlari (masalan, Qozog‘iston)da autizm bilan ishlash tajribasini o‘rganib, O‘zbekiston sharoitiga mos adaptatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, Qozog‘istonda autizm bilan og‘rigan bolalar uchun maxsus psy-pedagogik yordam, maxsus maktablar va psixologik xizmatlar yaratilganligi haqida ma’lumotlar mavjud.

– Jahon ilmiy adabiyotida hozirda autizmni baholashda faqat xulq-atvor kuzatuvini emas, balki neyrobiologik metodlar (masalan, miyaning morfologik va funksional tahlillari) ham qo‘llanilmoqda. Masalan, bir tadqiqotda konvolyutsion neyron tarmoqlari yordamida neyroimaging ma’lumotlariga asoslangan diagnostika biomarkerlari identifikatsiya qilingan — bu yanada aniq va ob’yektiv diagnostika imkoniniberadi.

– Bu kabi yondashuvlarni MDH davlatlarida ham, xususan, O‘zbekiston sharoitiga mos tarzda joriy etish — ilg‘or istiqbol xisoblanadi.

O‘zbekiston ichidagi pedagogik va psixologik tadqiqotlar (masalan, “Autizmli bolalarga psixologik xizmat ko‘rsatish” maqolasi) diagnostika bilan birga korreksiya va reabilitatsiya jarayonlarini ham ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

- Bu esa MDH doirasida tajriba almashish, o‘qituvchilar va mutaxassislar tayyorlash, maxsus markazlar yaratish yo‘nalishida ham rivojlanish imkoniyatlarini ochadi.
- Tadqiqotlarda ota-onalarning ko‘pchiligi autizm bilan bog‘liq holatlarni “jamiyatda noto‘g‘ri tushunish”dan qo‘rqib yashirishi, diagnostikadan chekinishi qayd etilgan. Bu bilan statistik ma‘lumotlar kam; real tarqalish darajasi aniq chiqmaydi.
- Mintaqaviy hamkorlik — til, ma‘lumot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali stigmani kamaytirish ham istiqbollardan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki O‘zbekistonda autizm diagnostikasi rivojlanib bormoqda, lekin tizim hali to‘liq shakllanmagan. Kagan (1981) va “Maxsus pedagogika” (2020) yondashuvlarini uyg‘unlashtirish diagnostika sifatini oshiradi. Erta diagnostika, multidisiplinar yondashuv va standart testlarni joriy etish tizimni samarali qiladi. Shu bilan birga, jamiyatda autizm haqida to‘g‘ri tushunchalarni shakllantirish va mutaxassislar tayyorlash vazifalari ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ta‘riflangan holatlar va tavsiyalar — O‘zbekiston sharoitida autizm diagnostikasini takomillashtirish uchun asos bo‘la oladi. Shuningdek, MDH va Markaziy Osiyo davlatlaridagi tajribalar (masalan, Qozog‘iston, boshqa mamlakatlarda autizm bilan ishlash) ham ilmiy-amaliy ko‘lamda o‘rganilishi va moslashtirilishi mumkin. Bu — ham diagnostika, ham reabilitatsiya, ham jamiyat qo‘llab-quvvatlashining kompleks strategiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kagan, V.E. *Аутизм у детей*. — Moskva: Pedagogika, 1981.
2. Maxsus pedagogika. O‘zbekiston pedagoglari jamoasi. — Toshkent: Oliy ta‘lim nashriyoti, 2020.
3. Mirzahamdama, N. Autizm sindromli bolalar. — “Tadqiqotlar” jurnali, 2021.
4. Nurmatova, D.G. O‘zbekistonda autizm sindromi va psixogen omillari. — “Axborotnoma”, 2022.
5. Xakimova, Z. Autizm sindromi va uning turlari. — “Open Science”, 2023.
6. WHO. Autism spectrum disorders: Key Facts. — Geneva, 2022.
7. Prizant, B. *Uniquely Human*. — HarperCollins, 2015.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM VA XORIJIY TA‘LIM TIZIMLARI INTEGRATSIYASINING NAZARIY-AMALIY JIHATLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

4-bosqich talabalari:

Muydinjonova Malika

Sharapova Munisa

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimini takomillashtirish jarayonida xorijiy ta‘lim tajribalarini o‘rganish va ularni milliy ta‘lim amaliyotiga integratsiyalashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda xalqaro ta‘lim tizimlarida qo‘llaniladigan kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlar, innovatsion o‘qitish metodlari, baholash modeli va pedagog kadrlar tayyorlashning zamonaviy tamoyillari umumlashtirilgan. Shuningdek, ushbu ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston boshlang‘ich ta‘limiga moslashtirish imkoniyatlari hamda ularning amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan pedagogik texnologiyalar hamda integratsiya jarayonining afzalliklari bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, xorijiy ta‘lim tizimi, integratsiya, innovatsion metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, ta‘lim sifati, pedagogik tajriba, o‘quv dasturi, interfaol metodlar, raqamli ta‘lim.

KIRISH

Mamlakatimizda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida boshlang‘ich ta‘lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashtirish sharoitida turli davlatlarning ta‘lim tajribalari, ilg‘or pedagogik yondashuvlari va innovatsion metodlarini chuqur o‘rganish va ularni milliy ta‘lim tizimiga moslash orqali sifat samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Xususan, boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga xorijiy ta‘lim tizimlarining eng samarali tajribalarini integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish, kreativ fikrlashni shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuvni mustahkamlash hamda o‘quv jarayonining zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishini ta‘minlash mumkin.

ASOSIY QISM

Ta‘lim tizimlarida integratsiya — bu turli mamlakatlarning pedagogik tajribalarini, o‘qitish metodlarini, o‘quv dasturlarini, baholash mezonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish

jarayoni bo‘lib, ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta‘limda integratsiya, avvalo, o‘quv jarayonining kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi, bolalarda mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ ko‘nikmalar va mustaqillikni rivojlantirishni ko‘zlaydi.

Xorijiy ta‘lim tizimlarida boshlang‘ich sinflarga oid integratsiya amaliyoti ko‘plab afzalliklarga ega. Finlandiya tajribasida o‘quvchi individual tempda rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi, o‘qituvchi esa ko‘proq yo‘naltiruvchi rolini bajaradi.

Singapur ta‘limida mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar, o‘quvchini natija uchun mas‘ul qiluvchi baholash tizimi va raqamli vositalar bilan boyitilgan darslar asosiy o‘rinni egallaydi. Yaponiyada esa boshlang‘ich ta‘lim jarayoni tarbiya, odo-axloq, mehnatsevarlik, jamoadorchilik va mas‘uliyatni shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar bilan boyitiladi.

Integratsiyaning yana bir muhim jihati o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqishdir. Fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish, real hayotga yaqin vaziyatlar asosida topshiriqlar berish ta‘lim samaradorligini oshiradi.

O‘qituvchilar malakasini oshirish integratsiyaning zarur shartidir. Xorijiy metod va yondashuvlar bo‘yicha treninglar orqali pedagoglar zamonaviy dars konstruktsiyasini yaratishni o‘rganadilar.

Baholash tizimini yangilash ham integratsiyaning muhim yo‘nalishidir. Xorijiy tajribalarda kompetensiyaga asoslangan baholash, portfoliolar, bosqichma-bosqich monitoring qayd etilgan.

2.1. Finlandiya tajribasi

- o‘quvchiga ortiqcha yuklama berilmaydi;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim;
- rag‘batlantiruvchi baholash;
- o‘yin orqali o‘qitish.

2.2. Singapur ta‘lim tizimi

- “Kam sonli, lekin chuqur o‘rgatish” tamoyili;
- kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta‘lim;
- erta yoshdan STEM;
- raqamli ta‘limga urg‘u.

XULOSA

Xorijiy ta‘lim tizimlarining ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni boshlang‘ich ta‘limga moslashtirish ta‘lim sifatini oshiradi. Eng muhim jihat — xorijiy tajribani milliy ta‘lim tizimiga moslab joriy etishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova R.X., Xoliyorova M.Q. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Hasanboeva O. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
3. Sahlberg P. Finnish Lessons. – Teachers College Press, 2015.
4. Tan Oon Seng. Singapore's Education System. – NIE, 2018.
5. OECD. Education at a Glance. – OECD Publishing, 2022.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TURLI-XIL DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Xurramova Sanobar Maxmatmurodovna

Termiz davlat pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta’limda matematika va ona tili” kafedrası o‘qituvchisi

Shonazarova Ozoda Erkinovna

Termiz davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi

ANNONTATSIYA

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga faolligini oshirish, bilimni mustahkamlash va ijodiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik yondashuvlarning muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda didaktik o‘yinlar — pedagogik faoliyatning samarali vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Didaktik o‘yin — o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘yin elementi orqali shakllantirishga xizmat qiladigan interaktiv metod hisoblanadi. Mazkur maqolada shular xususida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, metodika, didaktik o‘yin, bilim, ko‘nikma, malaka, ijodkorlik, fikrlash, mantiqiy tafakkur.

ABSTRACT

In primary education, enhancing student engagement in the learning process, reinforcing knowledge, and fostering creative thinking are among the key objectives of effective pedagogical approaches. To achieve these goals, didactic games are increasingly used as an effective tool in educational practice. A didactic game is considered an interactive method that serves to develop students’ knowledge, skills, and competencies through game elements. This article provides information on these aspects and discusses their pedagogical significance.

Keywords: education, methodology, didactic game, knowledge, skill, competence, creativity, thinking, logical thinking.

Ma’lumki, ona tili fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib va tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi [1, 4-b.].

Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlarni dars jarayoniga joriy etishning nazariy asoslari sifatida va zamonaviy interaktiv pedagogik texnologiyalar asoslari hisoblanadi. O‘yinning ta’limdagi roli shundaki, u o‘quvchilarning faoliyat asosida o‘zlashtirishini ta’minlab, tajriba va sinov-xatolar orqali bilim beradi. Didaktik o‘yinlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagilarni shakllantirish mumkin.

- 1) o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi;
- 2) faol ishtirokni rag'batlantiradi;
- 3) muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- 4) hamkorlikda ishlashni rivojlantiradi.
- 5) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Didaktik o'yinlar ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridan biri. U tarbiyalanuvchilarda o'qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi. Didaktik o'yin - ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga yani o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Darslarda interaktiv ta'limiy o'yinlarni tashkil etish, o'yinsiz to'la-to'kis aqliy rivojlanishni tasavvur etib bo'lmaydi. O'yin bu o'quvchilar uchun yirik jo'shqin chashma. U orqali o'quvchining ma'naviy dunyosiga jonli tushunchalar, tasavvurlar oqimi quyiladi. 1-4-sinf o'quvchilarida tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Shu sababli o'quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qiziqtiruvchi o'yin metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Didaktik o'yinlar o'qitish, o'rgatish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, quvnoq tarzda olib boriladi. Bolalar g'olib bo'lish maqsadida astodil o'yinga kirishib mashq qilishadi, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish ortib boraveradi. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. Maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o'qitishda g'oyat samarali bo'lgan qator o'yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarining fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko'rinish:

1. Mehnat faoliyati
2. O'yin faoliyati
3. O'quv faoliyatida shakllanadi

Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari o'yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o'yinli ta'limni o'quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta'lim shakli deyish to'g'ri emas. U o'quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish faolligini oshiradi, qiziqish uyg'otadi. Qiziqish bor joyda esa ta'lim sifati yaxshilanadi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars

shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Ma'lumki, ona tili fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib va tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi [1, 4-b.]. Quyida ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yindan namuna keltirilgan.

“SINKVEYN ” DIDAKTIK O‘YINI

Didaktik o'yin tavsifi: Sinkveyn didaktik o'yinida o'qish va yozish asosida fikrlarni rivojlantirish dasturi bo'lib, Sinkveyn (fr. “besh qator”) – ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki qarashlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maqsad: Sinkveyn tuzish – tushunilishi qiyin g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo'lib, bu jarayon mavzuni puxtaroq o'zlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantiradi, ularning bilimini baholaydi, o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi, o'quvchilar nutqida mantiqiylik va izchillikni ta'minlaydi va fanlararo integratsiyani amalga oshiradi. Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

O'tkazish tartibi:

1-bosqich Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi)

2-bosqich Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (odatda 2 ta sifat tanlanadi)

3-bosqich Mavzu doirasida tashkil etiladigan xatti-harakat uchta so'z bilan ifodalanadi

4-bosqich Mavzuga nisbatan munosabatni anglatadigan to'rtta so'zdan iborat fikr yoziladi (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi)

5-bosqich Mavzu mohiyatini takrorlovchi, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta gap yoziladi (mavzuga doir sinonimlar asosida gap yoziladi)

1.Mavzu bir ot bilan ifodalanadi: **Bulut**

2. Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi: **Oppoq, beg'ubor**

3.Mavzu uch fe'l bilan ifodalanadi: **Uchib yurar, zavqlantirib, quvontiradi.**

4.To'rt so'zdan iborat jumla: **Xayolimda sen tomonga parvoz etaman.**

5.Mavzuga doir bitta so'z: **Poklik**

Sinkveyin didaktik o‘yini o‘quvchilarning erkin fikri hisoblanib, chuqur mulohaza qilishga o‘rgatadi. O‘qituvchidan mavzudan asosiy ma’lumotlarni topish, umumlashtirishni talab qiladi. Bundan tashqari, o‘qish savodxonligi darslarida (masalan, o‘tgan mavzuni umumlashtirishda yoki asarlarni o‘qib chiqqandan keyin) sinkvindan foydalanish mumkin. Odatda tanqidiy fikrlashga imkon beradigan bu usul axborotni umumlashtirish, murakkab fikrlarni aniq etkazish va fikr-mulohazalarni bildirishda samarali hisoblanadi. Buni individual ishda ham, guruh va juftlikda ham ijodiy bajariladigan vazifa deb hisoblash mumkin. Sinkveyin yordamida siz so‘z boyligini rivojlantirishingiz, o‘quvchilarning qiziqishini, bilvosita fikrlashni oshirishingiz, fikrlarni to‘plashingiz, so‘zlarni bir-biri bilan bog‘lashingiz mumkin. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ta’sir qiladi. Boshlang‘ich ta’limda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarga didaktik o‘yinlarni darsda muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilishini va dars jarayonida qo‘llash uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. O‘quv maqsadiga moslik – o‘yin dars maqsadlarini to‘liq qamrab olish.
2. Faollik – o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etish.
3. Bosqichma-bosqichlik – murakkablik darajasi o‘sib borish.
4. Baholash – o‘yin orqali olingan natijalarni baholash.
 - dars rejasiga didaktik o‘yinlar uchun vaqt ajratish;
 - o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos o‘yinlarni tanlash;
 - o‘yin orqali olingan natijalarni baholash uchun aniq mezonlar belgilash;
 - guruhdagi hamkorlikni rag‘batlantirilishi;

XULOSA

Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini samarali, qiziqarli va interaktiv qiluvchi kuchli pedagogik vositadir. Avvalo, har bir dars jarayonini tashkil etilishida aniqlik bo‘lishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga erkinlikni, albatta, me’yorida ta’minlab berishi lozim. Ular o‘quvchilarning bilim darajasini mustahkamlash, qiziqishni oshirish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada keltirilgan ma’lumot o‘qituvchilarga dars jarayonida didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan ko‘rsatma beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom 3-bob 12 bandi

2. DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY IN STUDENTS ON THE BASIS OF A COMPETENT APPROACH. (2025). *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*, 1(2), 164-169
3. Eshanqulovna, E. L. J. I., & Erkinovna, S. O. (2025, June). BOSHLANG 'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH SHAKL VA METODLARI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 3, No. 6, pp. 35-38).
4. Eshanqulovna, E. J. I. (2025, June). BOSHLANG 'ICH SINFI O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINI NAZORAT QILISH YO'LLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 2, No. 5, pp. 52-56).
5. Eshpulatova Jang'il Eshonqulovna. (2023). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *International Journal of Pedagogics*, 3(03), 25–31.
6. Zhangil ESHPULATOVA. (2023). CRITERIA FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 1-5.
7. KOMPETENTLI YONDOSILISH ASOSIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH. (2025). *EduVision: Pedagogika va ta'lim sohasidagi innovatsiyalar jurnali*, 1 (2), 164-169.
8. Eshpulatova, J. E. (2024). MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARIDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH. *Inter education & global study*, (3 (1)), 139-146.
9. Eshpulatova Jang'il Eshonqulovna, . (2023). BAŞLANGICH SIF O'QUVCHILARINING IJODLIK MAKORATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Xalqaro Pedagogika jurnali*, 3 (03), 25–31. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue03-05>
10. Eshanqulovna, E. L. J. Boshlang'ich sinfi o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish shakli va metodlari.
11. Eshanqulovna, E. L. J. I., & Shopoatovna, T. L. B. (2024, February). BOSHLANGICH SINFI O'QUVCHILARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 2, pp. 68).

LEADERSHIP STYLES IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Kurbanbayeva Malohat Madjit qizi

Kimyo International University in Tashkent, Uzbekistan

Master's student

Abstract

The rapid integration of artificial intelligence (AI) into organizational processes is transforming how decisions are made, work is structured, and leadership is practiced. While AI offers significant advantages in efficiency and data-driven insight, it also raises new challenges related to ethics, accountability, trust, and human-machine collaboration. This article examines how leadership styles are evolving in the era of artificial intelligence and identifies the leadership approaches most suitable for AI-enabled organizations. The study adopts a qualitative, theory-driven methodology based on systematic analysis of contemporary academic literature and documented organizational practices. By synthesizing leadership theories and empirical insights, the research highlights the changing role of leaders in AI-driven environments. The findings indicate that transformational, adaptive, digital, and ethical leadership styles are particularly relevant, as they support innovation, flexibility, and responsible use of AI. The results further show that effective leadership in the AI era relies on hybrid decision-making that combines algorithmic insights with human judgment and moral responsibility. The article concludes that artificial intelligence does not reduce the importance of leadership; rather, it increases the need for leaders who can integrate technological competence with emotional intelligence and ethical awareness to ensure sustainable organizational performance.

Keywords: Artificial Intelligence, Leadership Styles, Transformational Leadership, Ethical Leadership, Digital Leadership, Human-AI Collaboration.

Introduction: Artificial intelligence has become a central force shaping contemporary organizations. AI-based systems are increasingly used to support decision-making, automate operational processes, manage human resources, and analyze large volumes of data. These developments are not limited to technology-focused industries but extend to finance, healthcare, manufacturing, education, and public administration. As AI becomes embedded in organizational routines, it changes not only how work is performed but also how authority, responsibility, and leadership are exercised. Traditional leadership models were largely developed in contexts where decisions were made exclusively by humans, information flows were limited, and organizational hierarchies were relatively stable. In contrast, AI-driven environments

are characterized by continuous data generation, algorithmic recommendations, and partially autonomous systems. This shift challenges leaders to reconsider their roles, as they must now interact with intelligent technologies that influence outcomes previously shaped by human judgment alone. The growing reliance on AI raises important questions about accountability, transparency, and the preservation of human values in organizational decision-making. The central problem addressed in this article is the lack of clarity regarding how leadership styles should adapt to the realities of AI-enabled organizations. Many organizations adopt AI technologies without sufficient attention to leadership capacity, resulting in employee resistance, ethical concerns, and ineffective implementation. In some cases, AI is perceived as a tool of control or surveillance rather than support, undermining trust between leaders and employees. These challenges suggest that technological investment alone is insufficient; leadership practices must evolve in parallel with technological change. The primary objective of this study is to analyze how leadership styles are changing in the era of artificial intelligence and to identify leadership approaches that enable effective and responsible use of AI. The study seeks to answer three key questions: how does AI reshape leadership roles and responsibilities; which leadership styles are most effective in AI-driven organizational contexts; and what competencies are required for leaders to manage ethical, technological, and human challenges associated with AI adoption. The theoretical foundation of this research draws on contemporary leadership theories that emphasize change, learning, and values-based governance. Transformational leadership is particularly relevant due to its focus on vision, motivation, and employee development, which are essential in environments undergoing digital transformation. Adaptive leadership provides a framework for understanding how leaders respond to uncertainty and complexity, both of which are intensified by rapid technological change. Digital leadership highlights the strategic integration of digital technologies into organizational processes, while ethical leadership addresses concerns related to fairness, accountability, and social responsibility in algorithmic decision-making. Existing research suggests that AI alters leadership by shifting emphasis from direct supervision toward coordination, interpretation, and ethical oversight. Leaders are increasingly required to help employees understand AI systems, evaluate algorithmic outputs critically, and integrate technological insights into broader organizational goals. However, prior studies often examine these issues in isolation, focusing either on technology or leadership without fully integrating the two perspectives. This article contributes to the literature by providing a structured analysis of leadership styles specifically in the context of artificial intelligence.

Methodology: This study employs a qualitative, conceptual research design aimed at analyzing leadership styles in the context of artificial intelligence through systematic examination of existing literature. A qualitative approach is appropriate given the exploratory nature of the research and its focus on interpretation, theory integration, and organizational meaning rather than numerical measurement. The research relies exclusively on secondary data sources. Academic journal articles, scholarly books, conference proceedings, and doctoral dissertations formed the core of the dataset. To ensure practical relevance, the study also included industry reports, published organizational case analyses, and policy documents from reputable international institutions. This combination allowed the research to capture both theoretical development and applied perspectives on leadership and AI. Data collection was conducted through structured searches in major academic databases, including Google Scholar, Scopus, Web of Science, and JSTOR. Keywords such as “artificial intelligence and leadership,” “digital leadership,” “ethical leadership and AI,” and “human–AI collaboration” were used in various combinations. Boolean operators were applied to refine results and exclude unrelated fields. Priority was given to sources published within the last ten years to reflect current technological developments, while foundational leadership theories were included to provide conceptual grounding. Following the initial search, sources were screened using explicit inclusion and exclusion criteria. Publications were included if they addressed leadership, management, or organizational implications of AI or advanced digital technologies. Sources focusing solely on technical or engineering aspects of AI without leadership relevance were excluded. Duplicate studies and non-peer-reviewed materials lacking academic rigor were also removed. This screening process resulted in a focused and relevant body of literature for analysis. The selected sources were analyzed using thematic analysis. Each text was reviewed to identify recurring ideas related to leadership roles, decision-making, ethics, employee relations, and organizational change in AI-enabled environments. These ideas were coded and grouped into themes, allowing systematic comparison across studies. This approach enabled synthesis of insights without forcing uniform conclusions across different organizational contexts. In addition, a comparative analytical approach was applied to assess how different leadership styles respond to AI-related challenges. Leadership theories were compared based on criteria such as adaptability, ethical responsibility, human-centeredness, and capacity to manage technological complexity. This method allowed the study to evaluate strengths and limitations of various leadership styles without privileging a single model. The study ensures methodological rigor through transparent source selection, triangulation of academic and practical perspectives, and critical

engagement with contrasting viewpoints. While the absence of primary empirical data limits contextual specificity, the breadth of the literature provides a solid foundation for analytical conclusions.

Results: The findings indicate that artificial intelligence significantly transforms leadership by redefining authority, decision-making processes, and leader–employee relationships. One of the most consistent results is that effective leadership in AI-enabled organizations is less focused on direct control and more oriented toward guidance, coordination, and interpretation of data-driven insights. Leaders increasingly act as intermediaries between AI systems and human actors, ensuring that algorithmic outputs are used responsibly. The analysis shows that transformational leadership is strongly associated with positive AI implementation outcomes. Leaders who articulate a clear vision and emphasize learning and empowerment reduce employee resistance to AI technologies. When AI is framed as a supportive tool rather than a replacement for human work, employees are more likely to engage constructively with intelligent systems and contribute innovative ideas. Adaptive leadership emerges as particularly important in environments characterized by rapid technological change. AI systems often evolve unpredictably, requiring organizations to revise processes and strategies. Leaders who demonstrate flexibility, encourage feedback, and adjust practices iteratively are better equipped to manage uncertainty and maintain organizational resilience. Ethical leadership is identified as a critical determinant of trust in AI systems. The results show that organizations with clear ethical guidelines and transparent communication experience fewer conflicts related to data use, bias, and accountability. Leaders who actively address ethical concerns foster legitimacy and reduce employee skepticism toward algorithmic decision-making. The findings also highlight a shift toward hybrid decision-making. While AI enhances analytical capacity, effective leaders do not delegate final authority to algorithms. Instead, they combine AI insights with contextual knowledge, professional experience, and moral judgment. This approach preserves accountability and aligns technological outcomes with organizational values. Emotional intelligence is another key finding. Employees often experience anxiety related to automation and job transformation. Leaders who demonstrate empathy and communicate clearly are more successful in maintaining motivation and psychological safety during AI-driven change. Overall, the results indicate that leadership effectiveness in the AI era depends on the integration of multiple leadership styles rather than reliance on a single approach.

Discussion: The findings of this study support the view that artificial intelligence intensifies, rather than diminishes, the importance of leadership. The shift from control-based leadership toward interpretive and ethical leadership reflects the growing

complexity of organizational decision-making. AI systems provide information, but leaders remain responsible for meaning-making and value-based judgment. The prominence of transformational and adaptive leadership aligns with broader theories of change management and innovation. These leadership styles enable organizations to navigate uncertainty while maintaining employee engagement. The importance of ethical leadership reinforces concerns raised in AI governance literature regarding bias, transparency, and accountability. The emergence of hybrid decision-making challenges assumptions that AI will replace human leadership. Instead, the findings suggest that AI reshapes leadership into a more collaborative and reflective role. Leaders must understand technology without surrendering responsibility to it. This study contributes to leadership theory by integrating digital, ethical, and human-centered perspectives into a unified analytical framework. Practically, the findings suggest that leadership development programs should emphasize ethical reasoning, emotional intelligence, and adaptability alongside digital skills.

Conclusion: This article examined how leadership styles are evolving in the era of artificial intelligence and identified approaches that support effective and responsible AI use in organizations. The analysis shows that AI fundamentally reshapes leadership roles, shifting emphasis from direct control toward interpretation, coordination, and ethical oversight. Transformational, adaptive, digital, and ethical leadership styles emerge as particularly relevant in AI-enabled environments. The findings demonstrate that successful leadership in the AI era relies on hybrid decision-making that integrates algorithmic insights with human judgment and moral responsibility. Emotional intelligence and ethical awareness are essential for maintaining trust and employee engagement during technological change. The study concludes that artificial intelligence does not replace leadership but demands more sophisticated and values-driven leadership practices. By clarifying how leadership styles align with AI-driven organizational realities, this research contributes to both theory and practice. Future research may build on these findings through empirical investigation of leadership behavior in specific organizational contexts.

References:

1. Bass, B. M., & Riggio, R. E. (2006). *Transformational leadership* (2nd ed.). Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
2. Brown, M. E., & Treviño, L. K. (2006). Ethical leadership: A review and future directions. *The Leadership Quarterly*, 17(6), 595–616.
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, platform, crowd: Harnessing our digital future*. New York, NY: W. W. Norton & Company.

4. Northouse, P. G. (2021). *Leadership: Theory and practice* (9th ed.). Thousand Oaks, CA: Sage Publications.
5. Schein, E. H. (2017). *Organizational culture and leadership* (5th ed.). Hoboken, NJ: Wiley.
6. Wilson, H. J., Daugherty, P. R., & Bianzino, N. (2017). The jobs that artificial intelligence will create. *Harvard Business Review*. Retrieved from
7. Yamakawa, H., & Kurahashi, S. (2020). Human–AI collaboration in decision-making: A leadership perspective. *Journal of Artificial Intelligence Research*, 68, 123–145.

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM SOHASIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING ISTIQBOLLARI

Termiz davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti

Do‘liiyeva Mohichehra

Termiz davlat pedagogika instituti
Tarix fakulteti o‘qituvchisi PhD

Boboyeva Sitara Ro‘zimahmatovna

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbekiston respublikasida mustaqillikdan keyingi davrda, ayniqsa so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati va natijalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar yoritiladi. Shuningdek, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish istiqbollari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar:Oliy ta’lim, ta’lim islohotlari, raqobatbardosh kadrlar, xalqaro integratsiya, kredit-modul tizimi, raqamlashtirish, ta’lim sifati

Аннотация:В данной статье проводится научный анализ реформ, реализованных в системе высшего образования Республики Узбекистан в постколониальный период, особенно в последние годы, их содержания и результатов. Рассматриваются нормативно-правовые документы и практические меры, направленные на модернизацию высшего образования, повышение качества образования, его адаптацию к международным стандартам и подготовку конкурентоспособных кадров. Также обосновываются перспективы развития системы высшего образования, существующие проблемы и пути их преодоления.

Ключевые слова:Высшее образование, образовательные реформы, конкурентоспособные кадры, международная интеграция, кредитно-модульная система, цифровизация, качество образования

Abstract:This article scientifically analyzes the reforms implemented in the higher education system in the Republic of Uzbekistan in the post-independence period, especially in recent years, their content and results. It covers regulatory and legal documents and practical measures aimed at modernizing higher education, improving

the quality of education, adapting it to international standards, and training competitive personnel. It also substantiates the prospects for the development of the higher education system, existing problems and ways to overcome them.

Keywords: Higher education, educational reforms, competitive personnel, international integration, credit-module system, digitalization, quality of education

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ilm-fan, innovatsiya va yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari bevosita oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'limni takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va ta'lim sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston respublikasida ham mustaqillik yillaridan boshlab oliy ta'lim sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda o'zbekiston respublikasi prezidenti tashabbuslari bilan oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy ta'lim muassasalari mustaqilligini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovini oshirishga qaratildi.

Mazkur maqolaning maqsadi o'zbekistonda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni ilmiy tahlil qilish, ularning amaliy natijalarini baholash hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Mustaqillikning dastlabki yillarida o'zbekistonda oliy ta'lim tizimi sobiq ittifoqdan meros bo'lib qolgan model asosida faoliyat yuritgan. Bu davrda ta'lim mazmuni, boshqaruv tizimi va moddiy-texnik baza zamon talablariga to'liq javob bermas edi. Shu sababli oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati yuzaga keldi.

1997-yilda qabul qilingan "ta'lim to'g'risida"gi qonun va "kadrlar tayyorlash milliy dasturi" oliy ta'limni rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu hujjatlar asosida oliy ta'lim tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilina boshlandi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan asosiy islohotlar

2017-yildan boshlab o'zbekistonda oliy ta'lim sohasida yangi bosqich boshlandi. Bu davrda oliy ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, qabul kvotalari sezilarli darajada oshirildi va yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi kengaydi.

Oliy ta'lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligi bosqichma-bosqich kengaytirildi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimi takomillashtirildi. Bu jarayonda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi muhim muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritmoqda.

Kredit-modul tizimiga o'tish va ta'lim sifatini oshirish

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan muhim islohotlardan biri kredit-modul tizimining joriy etilishidir. Ushbu tizim ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish, talabalar akademik harakatchanligini oshirish va ta'lim natijalarini shaffof baholash imkonini beradi.

Kredit-modul tizimi talabalarni mustaqil ta'limga undaydi, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim sifati oshib, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi kuchaymoqda.

Xalqaro hamkorlik va oliy ta'limning globallasuvi

Oliy ta'lim sohasidagi islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri xalqaro hamkorlikni kengaytirishdir. Bugungi kunda o'zbekistonda ko'plab xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyat yuritmoqda, qo'shma ta'lim dasturlari amalga oshirilmoqda.

Xalqaro hamkorlik professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvini rivojlantirish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon o'zbekiston oliy ta'lim tizimining jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda.

Raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlar

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish keng tus oldi. Masofaviy ta'lim, elektron platformalar va raqamli resurslar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Bu esa ta'limning ochiqligi va qulayligini oshirdi.

Innovatsion yondashuvlar, startap loyihalar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali oliy ta'lim muassasalari ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirmoqda.

Oliy ta'limni rivojlantirish istiqbollari va dolzarb vazifalar

Kelgusida o'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va raqobatbardoshlikni oshirish asosiy ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Xususan, ta'lim mazmunini mehnat bozori talablariga moslashtirish, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish va xalqaro reytinglarda oliy ta'lim muassasalarining o'rnini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'zbekistonda oliy ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar tizimli va bosqichma-bosqich xarakterga ega bo'lib, ta'lim sifatini oshirish va

raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusida ushbu islohotlarning izchil davom ettirilishi o'zbekistonni mintaqadagi ta'lim markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasining "ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
3. Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi.
4. Oliy ta'lim va innovatsion rivojlanish masalalari. – ilmiy maqolalar to'plami.
5. Zamonaviy ta'lim tizimlari va global tendensiyalar. – monografiya.
6. Elektron va normativ-huquqiy manbalar.

CONSTITUTIONAL REFORMS – A MOVEMENT FOR HUMAN DIGNITY

Alijonov Muhammad

a student of the Faculty of Law at Namangan State University.

Annotation

This article analyzes the essence and significance of the constitutional reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan, particularly their role in enhancing human dignity, honor, and rights. It also examines the role of the principle “For Human Dignity” in the new version of the Constitution and explains the substance of reforms aimed at democratizing relations between the state and society.

Keywords: Constitution, reform, human dignity, democracy, civil society, social justice, rule of law.

Main Text

Since gaining independence, the Republic of Uzbekistan has been carrying out comprehensive reforms in all spheres of social life. One of the most important areas of these processes is constitutional reform, namely improving the fundamental law of the state based on modern requirements. Indeed, at the center of every reform stands the individual, their rights, and interests. For this reason, the principle “For Human Dignity” has been defined as the main guiding idea of the Constitution.

Historical Stages

With the adoption of the Constitution in 1992, Uzbekistan established its legal foundation as an independent state. From that period onward, the basic principles related to citizens’ rights and freedoms and the functioning of state authorities were determined. Up until 2023, several constitutional reforms were implemented, each of which was aimed at protecting human dignity and rights.

The Principle of Human Dignity in the New Constitution

In the new edition of the Constitution, human dignity, honor, and reputation are recognized as the highest values. The right of every citizen to education, healthcare services, labor, social protection, and decent living conditions is guaranteed. Furthermore, environmental rights, freedom of access to information, as well as the rights of youth and persons with disabilities have been further strengthened.

Practical Results

In recent years, as a result of reforms, the social protection system has expanded: poverty levels have been reduced, and programs supporting youth and women have been broadened. The activities of state institutions have become more transparent and

accountable, public participation has increased, and the systems of referendums and open dialogue are functioning effectively.

International Experience

Uzbekistan's constitutional reforms have been harmonized with international standards. When compared with the experience of the United Nations and other international institutions, the guarantees of human rights and freedoms correspond to the requirements of a modern, democratic, and rule-of-law state.

Development Strategy of New Uzbekistan

Constitutional reforms are closely linked with the Development Strategy of New Uzbekistan. The principle "For Human Dignity" has become a fundamental principle in every direction of state policy. This principle represents not only a legal guarantee, but also a practical program aimed at improving the well-being of citizens.

Conclusion and Prospects

Constitutional reforms represent a comprehensive effort aimed at enhancing human dignity, honor, and rights. In the development of New Uzbekistan, these reforms create a strong foundation for democracy, civil society, and social justice. In the future, this principle will continue to serve the further development of the country and the improvement of the quality of life of the population.

References

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. — Tashkent: Uzbekistan, 2023.
2. Mirziyoyev Sh. M. Strategy of New Uzbekistan. — Tashkent: Uzbekistan, 2021.
3. Official website of the President of the Republic of Uzbekistan — www.president.uz
4. "Constitutional Reforms – An Expression of the Will of Our People" // Journal 'Law and Duty', 2023, No. 4.
5. Karimov I. A. Uzbekistan's Own Path of Independence and Development. — Tashkent: Uzbekistan, 1992.

INTUITSIYA VA RATSIONAL FIKRLASHNING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI

Mamajonova Zarina Odiljonovna

Fan va texnologiyalar universiteti 1-kurs talabasi

arianakim658@gmail.com

Tel: +998 (88) 048-01-48

Rasulov Rustambek Odilovich

Fan va texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b, f.f.f.d., (PhD)

ORCID: 0009-0001-3976-4177

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inson tafakkurining ikki muhim shakli — intuitsiya va ratsional fikrlashning mohiyati, ularning qaror qabul qilish jarayonidagi o‘rni va o‘zaro munosabati ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Intuitsiya ko‘pincha hissiy va anglanmagan jarayon sifatida qaralsa-da, u inson tajribasi va ong osti mexanizmlariga tayanadi. Ratsional fikrlash esa mantiqiy izchillik va dalillarga asoslangan holda qaror chiqarishga xizmat qiladi. Maqolada mashhur allomalar va mutafakkirlar fikrlariga tayangan holda, ushbu ikki tafakkur turi o‘rtasidagi muvozanatning inson hayotidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: intuitsiya, ratsional fikrlash, tafakkur, qaror qabul qilish, aql, sezgi, mantiq, inson ongi, ichki sezgi, tahlil, muvozanat, zamonaviy jamiyat.

Inson hayoti uzluksiz qarorlar zanjiridan iborat. Har bir qaror — u kichik bo‘ladimi yoki hayotni tubdan o‘zgartiradimi — ma‘lum bir fikrlash mexanizmi asosida qabul qilinadi. Ba‘zi holatlarda inson uzoq o‘ylamasdan, ichki sezgi orqali qaror chiqaradi, ayrim vaziyatlarda esa vaziyatni chuqur tahlil qilib, mantiqiy xulosaga keladi. Ushbu ikki yondashuv mos ravishda intuitsiya va ratsional fikrlash deb ataladi.

Zamonaviy jamiyatda bu ikki tushuncha ko‘pincha qarama-qarshi qo‘yiladi. Intuitsiya hissiyotga bog‘liq, ishonchsiz deb qaralsa, ratsional fikrlash mutlaq to‘g‘ri yo‘l sifatida talqin qilinadi. Aslida esa, inson tafakkuri aynan shu ikki mexanizmning o‘zaro uyg‘unligi orqali samarali ishlaydi. Shu sababli ushbu maqolada intuitsiya va ratsional fikrlash alohida-alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi.

Imom G‘azzoliy shunday deydi: “Inson aqli anglay olmagan narsani qalb ba‘zan bir lahzada bilib qo‘yadi.” [1]

G‘azzoliyning ushbu fikri intuitsiyani aqlga zid kuch sifatida emas, balki aql yetib bormagan darajadagi idrok shakli sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda “qalb” tushunchasi faqat diniy ma‘noda emas, balki insonning ichki sezgi va ong osti mexanizmlari sifatida talqin qilinishi mumkin. Inson ko‘pincha nimanidir “nega bunday his qilyapman” deb tushuntira olmaydi, ammo baribir ichki ishonch bilan harakat qiladi.

Bizning fikrimcha, intuitsiya tasodifiy hodisa emas. U — inson ongida to‘plangan tajribalar, kuzatishlar va xotiralar natijasidir. Faqat bu jarayon ongli tahlil bosqichidan o‘tmaydi. Shu sababli intuitsiya tezkor va ba‘zan juda aniq bo‘ladi. Ayniqsa inson ilgari duch kelgan vaziyatlarga o‘xshash holatlarda intuitsiya kuchli signal beradi.

Biroq intuitsiyani mutlaq haqiqat deb qabul qilish ham xatodir. Chunki ong ostida noto‘g‘ri tajribalar, qo‘rquvlar yoki hissiy jarohatlar ham saqlanishi mumkin. Agar inson o‘z ichki sezgisini doimo tekshirib ko‘rmasa, u noto‘g‘ri qarorlarga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu sababli intuitsiya kuchli vosita bo‘lsa-da, uni nazoratsiz qoldirish xavfli.

Rene Dekart quyidagicha yozadi: “Aql — haqiqatga eltuvchi eng ishonchli vositadir.” [2]

Dekart ratsional fikrlashni haqiqatga olib boruvchi asosiy yo‘l sifatida ko‘radi. Uning falsafasida shubha qilish, tahlil qilish va isbotlash markaziy o‘rin tutadi. Bu yondashuv fan, texnika va ilmiy tafakkurning rivojiga katta turtki bergan.

Bizning nazarimda, ratsional fikrlash insonni hissiyotlar ta‘siridan ma‘lum darajada himoya qiladi. Ayniqsa mas‘uliyatli qarorlar — moliyaviy masalalar, kasbiy tanlov, ijtimoiy munosabatlarda mantiqiy tahlil xatolik ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Ratsional fikrlash insonni dalillarga tayangan holda harakat qilishga majbur qiladi.

Shu bilan birga, ratsional fikrlash ham cheksiz mukammal emas. Ba‘zan ortiqcha tahlil qaror qabul qilishni kechiktiradi, ikkilanishni kuchaytiradi va insonni harakatsizlikka olib keladi. Hayot esa doimo to‘liq ma‘lumot bermaydi. Bunday vaziyatlarda faqat mantiqqa suyanish yetarli bo‘lmay qoladi.

Karl Yung shunday deydi: “Intuitsiya insonni kelajak imkoniyatlariga yetaklaydi, ratsional fikr esa uni hozirgi haqiqat doirasida ushlab turadi.” [3]

Yungning ushbu fikrida intuitsiya va ratsional fikrlash o‘rtasidagi asosiy farq aniq ko‘rinadi. Intuitsiya ehtimollar, imkoniyatlar va hali ro‘y bermagan holatlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ratsional fikrlash mavjud faktlar va real vaziyatga tayanadi. Shu sababli bu ikki mexanizm o‘rtasida ko‘pincha ichki ziddiyat yuzaga keladi.

Bizning fikrimcha, aynan shu ziddiyat insonni rivojlanishga majbur qiladi. Agar inson faqat ratsional fikrlash bilan cheklansa, u xavfsiz, lekin cheklangan hayot tarzini tanlaydi. Aksincha, faqat intuitsiyaga suyanish esa beqarorlik va tavakkalchilikni kuchaytiradi. Ziddiyat shundaki, intuitsiya insonni yangi yo‘llarga chorlaydi, ratsional fikr esa uni ehtiyot bo‘lishga undaydi.

Hayotiy tajribada ko‘p hollarda inson ichki sezgisi bilan nimanidir to‘g‘ri deb biladi, ammo mantiqiy asos topa olmaydi. Yoki aksincha, mantiqan to‘g‘ri qaror hissiy jihatdan qoniqarsiz bo‘ladi. Aynan shu ichki qarama-qarshilik qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi. Menimcha, bu holatni salbiy deb emas, balki tafakkur pishib yetilishining tabiiy bosqichi deb qabul qilish kerak.

Daniel Kanneman yozadi: “Inson qarorlarining katta qismi ongli tahlildan emas, balki avtomatik intuitsiv baholashdan kelib chiqadi.” [4]

Kanneman ushbu fikri orqali inson ko‘pincha o‘zi sezmaganda qaror qabul qilishini ta’kidlaydi. Ya’ni, inson qaror qabul qilayotganda uni to‘liq mantiqiy tahlil qilyapman deb o‘ylaydi, ammo aslida intuitsiya allaqachon yo‘nalishni belgilab bo‘lgan bo‘ladi. Bizningcha, bu holat kundalik hayotda juda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, inson biror kishiga ishonish yoki ishonmaslik, bir joyni yoqtirish yoki yoqtirmaslik kabi qarorlarni bir necha soniyada qabul qiladi. Keyinchalik esa bu qarorni mantiqiy sabablar bilan oqlashga harakat qiladi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, intuitsiya ko‘pincha birinchi bo‘lib ishga tushadi, ratsional fikr esa uni tasdiqlash yoki inkor etish vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, muhim va uzoq muddatli oqibatlarga ega qarorlarda faqat intuitsiyaga suyanish xavfli bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda intuitsiya signal sifatida qabul qilinib, ratsional tahlil orqali tekshirilishi lozim. Menimcha, to‘g‘ri qaror aynan shu ikki bosqichdan o‘tgan qarordir: avval sezgi, keyin tekshiruv.

Bernard Verber shunday yozadi: “Texnologiya rivojlangan sari inson o‘z ichki sezgisini unutib qo‘yish xavfi bilan yuzma-yuz keladi.” [5]

Zamonaviy jamiyatda inson tobora ko‘proq algoritmlar, sun‘iy intellekt va statistik ma’lumotlarga tayanmoqda. Bu holat ratsional fikrlashning ustunligini kuchaytirayotgandek ko‘rinsa-da, aslida insonni ichki sezgidan uzoqlashtirishi mumkin. Verberning ogohlantirishi aynan shu xavfga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha, texnologiyalar inson o‘rniga fikrlamasligi, balki inson fikrlashini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Agar inson faqat tashqi tizimlarga ishonib qolsa, u mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini yo‘qotadi. Intuitsiya esa aynan insoniylikni saqlab qoluvchi omil hisoblanadi.

Boshqa tomondan, zamonaviy dunyoda hissiyotlarga berilib ketish ham xavfli. Axborot oqimi kuchli bo‘lgan davrda ratsional fikrlash insonni manipulyatsiya va yolg‘on ma’lumotlardan himoya qiladi. Shu bois bugungi jamiyatda eng muhim

ko‘nikma — intuitsiya va aqlni bir-biriga qarshi qo‘ymasdan, ularni muvozanatda ishlata olishdir.

Intuitsiya va ratsional fikrlash inson tafakkurining ikki ajralmas jihatidir. Intuitsiya tezkor, chuqur va ko‘pincha anglanmagan idrokni ta‘minlasa, ratsional fikrlash aniqlik, mantiq va izchillikni beradi. Ushbu ikki mexanizmning qarama-qarshiligi emas, balki uyg‘unligi insonni yetuk qarorlarga olib keladi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan allomalar fikrlari shuni ko‘rsatadiki, inson tafakkuri bir tomonlama emas. Haqiqiy ongli hayot — sezgi va aql o‘rtasidagi muvozanatni topa olgan inson hayotidir. Aynan shu muvozanat shaxsiy rivojlanish, to‘g‘ri qaror va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Imom G‘azzoliy. Ihyo ulumid-din. — Toshkent: Hilol Nashr, 2021. — 3-jild, 112-bet.
2. Rene Dekart. Falsafa asoslari. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 54-bet.
3. Karl Yung. Psixologik turlar. — Toshkent: Fan, 2003. — 88-bet.
4. Daniel Kanneman. Tez va sekin o‘ylash. — Toshkent: Nihol, 2022. — 119-bet.
5. Bernard Verber. Nisbiy va mutlaq bilimlar ensiklopediyasi. — Toshkent: Sharq, 2018. — 203-bet.vv
6. R.O. Rasulov. Ommaviy kommunikatsiyalarning yoshlar ijtimoiy siyosiy lashuviga ta‘siri bilan bog‘liq g‘oyaviy tendensiyalar. “Falsafa va hayot” ilmiy jurnali. Tom 3. №3. B. 47-54.
7. R.Rasulov. *Yangi O‘zbekistonda yoshlar bilan ishlash tizimida ularning ijtimoiy faolligi va ma‘naviy salohiyatini rivojlantirishning o‘ziga xos mexanizmlari.* — Научно-теоретический журнал “Ma‘mun Science”, 2022. — **B. 45.**
8. Rasulov Rustambek Odilovich. *Yoshlar bilan ishlash tizimida ma‘naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta‘siri.* — *International Journal of Scientific Research*, 2023, Tom 2, B. 147–152.
9. Rasulov Rustambek Odilovich. *Yoshlar bilan ishlashda tarbiyaning mafkuraviy asoslari.* — *Falsafa va Huquq jurnali*, 2023, Tom 3, B. 116–121.
10. Rasulov Rustambek Odilovich. *Jamiyat va yoshlar bilan ishlash tizimida ta‘lim va tarbiyaning madaniy asoslari (Ijtimoiy-falsafiy tahlili).* — *O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari jurnali*, 2023, B. 119–121.
11. Rasulov Rustambek. *Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari.* — *Management and Future Technologies Scientific Journal*, June 2025, Volume 2, Issue 2, B. 353–364.
12. Rasulov Rustambek Odilovich - [The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development](#). Spanish Journal of Innovation and Integrity,

ISSN: 2792-8268, Volume: 37, Dec-2024.

<https://sjii.es/index.php/journal/article/view/106/150>

13. Rasulov, R. . (2024). The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth. Академические исследования в современной науке, 3(48), 124–132. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/61938>

14. Rasulov Rustambek Odilovich. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT (IJERO).

<http://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/417>

15. Rasulov Rustambek Odilovich. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505.

<https://www.tadqiqot.uz/index.php/philosophy/article/view/11321>

16. O.Tursunov, R.O. Rasulov. *Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: C# WinForms asosida kalkulyator modeli.* — Academic Research in Modern Science, International scientific-online conference, 2023. — **B. 27.**

STEAM ELEMENTLARINI BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSIYA QILISH TAJRIBALARINI SOLISHTIRIB O'RGANISH

Termiz davlat pedagogika instituti
Ta'lim-tarbiyanazariyasi va metodikasi
1-kurs magitiranti Bozorov Nurbek

Annotatsiya. *Mazkur maqolada STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) ta'lim yondashuvining boshlang'ich maktab darslariga integratsiya qilinishining ahamiyati va afzalliklari yoritilgan. Unda STEAM elementlari orqali o'quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari qanday rivojlanishi tushuntirilgan. Shuningdek, fanlararo bog'liqlikni anglash, texnologiyalardan foydalanishni o'rganish va o'quvchilarning kelajak kasblariga tayyorlanishiga qo'shgan hissasi ham ochib berilgan. Maqola boshlang'ich ta'limda zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *STEAM ta'limi, boshlang'ich maktab, integratsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, fanlararo bog'liqlik, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika, motivatsiya, jamoaviy ish, muammolarni hal qilish, zamonaviy ta'lim, kelajak kasblari.*

KIRISH. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularni real hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bunday ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchining kelgusidagi akademik va hayotiy muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) ta'lim yondashuvini darslarga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, jamoaviy ish va texnologik savodxonligini rivojlantirish mumkin. Ushbu maqolada STEAM elementlarini boshlang'ich maktab darslariga qo'shishning afzalliklari va uning o'quvchilarga ta'siri keng yoritiladi. So'nggi yillarda ta'lim sohasida STEAM yondashuviga oid tadqiqotlar kengayib bormoqda. Xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy ishlar (Beers, 2011; Yakman, 2008)

STEAM ta'limining o'quvchilarda yuqori darajadagi tafakkur, ijodiy yondashuv va muammolarni kompleks hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligini ta'kidlaydi. Yakman (2008) o'z tadqiqotida STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyani kuchaytirishini va o'quvchilarning real hayot bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishiga xizmat qilishini ta'kidlagan. O'zbekiston tajribasida ham bu boradagi

izlanishlar shakllanib bormoqda. M. To‘ychiyeva (2021) o‘z maqolasida boshlang‘ich ta‘limda STEAM elementlarini joriy etish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy mashg‘ulotlarga qiziqish va texnologik tafakkurni rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan.

Shuningdek, STEAM asosidagi loyihaviy o‘qitish metodikasi haqida A. Qodirov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, bu yondashuv o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishi va o‘rganilayotgan bilimlarning hayotiylikini kuchaytirishi aytilgan. Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar STEAM ta‘limining boshlang‘ich bosqichda joriy qilinishi nafaqat o‘quvchilar salohiyatini rivojlantirishi, balki ta‘lim sifatini oshirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy ta‘lim muhitiga moslashtirilgan metodik qo‘llanmalar va dars ishlanmalarga ehtiyoj mavjudligi ham ta‘kidlanmoqda.

STEAM ta‘limini boshlang‘ich maktab darslariga samarali integratsiya qilish uchun turli pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlab, ularning bilimni amaliyotda qo‘llash, mustaqil fikrlash va ijodkorlik alohiyatini rivojlantiradi. fanlari

integratsiyalashg holda amaliy loyiha yaratadilar. Bu metod ijodkorlik va jamoaviy ishlashni rivojlantiradi. Fanlararo integratsiya metodi Turli fanlardagi bilimlar bir mavzu doirasida uyg‘unlashtiriladi. Masalan, matematika O‘quvchilar muayyan muammo yoki mavzu asosida guruhlarda ishlaydi, STEAM darsida texnologik qurilmaning hisob-kitobi, san‘at darsida uning dizayni bilan bog‘liq topshiriqlar beriladi. Tadqiqotga asoslangan o‘qitish (Inquiry-Based Learning) O‘quvchilar o‘z savollariga javob topish maqsadida tajriba o‘tkazadilar, kuzatadilar va tahlil qiladilar. Bu metod tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi. Muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan yondashuv (Problem-Based Learning) Haqiqiy hayotga yaqin muammolar asosida dars tashkil qilinadi. O‘quvchilar muammoni tushunish, tahlil qilish va yechim topish bosqichlarini o‘zlashtiradilar. STEAM markazli loyiha darslari Maxsus STEAM mashg‘ulotlari (robototexnika, kodlash, maket yaratish, grafik dizayn) orqali o‘quvchilar ko‘proq amaliy faoliyatga jalb qilinadi. O‘yinli va interaktiv metodlar STEAM elementlarini o‘z ichiga olgan o‘yinlar, konstruktorlar, simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otiladi va fanlar osonroq o‘zlashtiriladi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, STEAM ta‘lim yondashuvining boshlang‘ich maktab darslariga integratsiya qilinishi o‘quvchilar uchun bir qator ijobiy natijalar beradi. Avvalo, bu yondashuv bolalarda turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, o‘z bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash va kompleks muammolarga ijodiy yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, STEAM metodlari orqali tashkil etildi.

XULOSA. STEAM ta'lim yondashuvini boshlang'ich maktab darslariga integratsiya qilish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning fanlararo bog'liqlikni anglashini kuchaytiradi, ularni hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi hamda darslarga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani oshiradi. Shuningdek, STEAM ta'limi boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ishlash, jamoada hamkorlik qilish, muammolarga innovatsion yondashish kabi muhim ijtimoiy va intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu yondashuvning samarali tatbiqi uchun maktablarda zarur texnologik infratuzilma, o'qituvchilarning malakasini oshirish va metodik ta'minotni yaxshilash muhimdir. Umuman olganda, STEAM [Дата] 44 2 4 elementlarini boshlang'ich ta'limga bosqichma-bosqich kiritish ta'lim sifatini oshirishga va yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli bu bosqichda o'quv jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi aynan shu maqsadlarga xizmat qiluvchi, integratsiyalashgan, ijodiy va amaliy ta'lim modelidir. Bu yondashuvni boshlang'ich maktab darslariga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda fanlararo bog'liqlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni erta shakllantirish mumkin. Fanlararo yondashuv shakllanadi — STEAM ta'limi darslarda turli fanlar o'rtasida bog'liqlikni anglash imkonini yaratadi, bu esa bilimlarning yaxlit tushunilishini ta'minlaydi. Motivatsiya va qiziqish ortadi — Interaktiv va amaliy darslar orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi, ularning o'quv faoliyatida faolligi kuchayadi. Amaliy va texnik ko'nikmalar rivojlanadi — Texnologik vositalar, san'at va muhandislik elementlarining darslarga kiritilishi o'quvchilarning qo'llanma asosida ishlash va ijod qilish ko'nikmalarini oshiradi. Ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi — Jamoada ishlash, fikr almashish, birgalikda muammoga yechim topish orqali bolalarda hamkorlik, muloqot va mas'uliyat hissi rivojlanadi. Samaradorlikni oshirish zarur — STEAM ta'limidan to'liq foyda olish uchun infratuzilmani rivojlantirish, o'qituvchilarni maxsus tayyorlash va metodik ta'minotni kuchaytirish lozim.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati:

1. Davis, E. A., & Wilcock, J. (2017). Integrating STEM in Early Childhood Education: Challenges and Strategies. *Early Childhood Research Quarterly*, 39, 76
2. Kazakov, S. (2020). STEAM ta'lim yondashuvi va uning ta'lim jarayonidagi o'rni. *Ta'lim va rivojlanish*, 10(1), 45-52.

3. National Research Council. (2014). *STEM Integration in K-12 Education: Status, Prospects, and an Agenda for Research*. Washington, DC: The National Academies Press.
4. O‘rinboyev, J. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirishda STEAM ta‘limining ahamiyati. *Ilm-fan va ta‘lim*, 5(2), 15-22.
5. Sandoval, W. A., & Bell, P. (2014). Design-Based Research Methods for Studying Learning in Context: Introduction. *Educational Psychologist*, 39(4), 199-201.
6. Shodiev, M. (2022). STEAM ta‘limining boshlang‘ich maktablarda joriy etilishi: imkoniyatlar va muammolar. *Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari*, 8(4), 60-67.

LIVER TRANSPLANTATION: DONOR SOURCES, TYPES OF TRANSPLANTS AND PIGGYBACK TECHNIQUES

Egamberdiyev Hojiakbar Ulug‘bek o‘g‘li

University of Business and Science "Lecturers in Human Anatomy at the Department
usmonov-akbar@inbox.ru +998937760858

Liver transplantation is one of the most effective treatment methods for end-stage liver diseases. This thesis highlights donor sources, types of liver grafts, indications for transplantation, and surgical techniques for managing the inferior vena cava using Piggyback approaches.

According to donor source, liver transplantation is divided into deceased donor liver transplantation and living donor liver transplantation. In most cases, whole-organ liver transplantation is performed. However, in selected clinical situations, segmental (split) or reduced-size liver transplantation techniques are applied. In split liver transplantation, one deceased donor liver is divided and transplanted into two recipients, usually an adult and a pediatric patient. Reduced-size grafts are used when there is a size mismatch between the donor organ and the recipient's body size.

Indications for liver transplantation primarily include end-stage liver diseases. In developed countries, the most common causes are end-stage liver disease associated with hepatocellular carcinoma, alcoholic liver disease, and non-alcoholic fatty liver disease. Additional indications include chronic viral hepatitis (B, C, or D), autoimmune hepatitis, cryptogenic liver disease, and cholestatic liver diseases such as primary biliary cirrhosis and primary or secondary sclerosing cholangitis. Metabolic liver disorders, including alpha-1 antitrypsin deficiency, Wilson's disease, hereditary hemochromatosis, and Crigler–Najjar syndrome, are also recognized indications. Furthermore, Budd–Chiari syndrome, amyloidosis, drug-induced acute liver failure, polycystic liver disease, and selected primary and secondary malignant liver tumors may require liver transplantation.

During liver transplantation, several techniques are used to manage the inferior vena cava. The Classical Piggyback technique preserves the recipient's inferior vena cava and anastomoses the donor hepatic veins to the recipient hepatic veins, providing better hemodynamic stability and reduced blood loss. The Modified Piggyback technique improves venous outflow and reduces the risk of hepatic venous stenosis and Budd–

Chiari syndrome and is currently the most widely used method. The Modified Conventional technique is applied when Piggyback methods are not feasible but is associated with higher hemodynamic risk.

REFERENCES

1. Starzl TE, Marchioro TL, Von Kaulla KN, Hermann G, Brittain RS, Waddell WR. Homotransplantation of the liver in humans. *Surg Gynecol Obstet.* 1963;117:659–676.
2. Adam R, Karam V, Delvart V, et al. Evolution of indications and results of liver transplantation in Europe: A report from the European Liver Transplant Registry (ELTR). *J Hepatol.* 2012;57(3):675–688.
3. Busuttill RW, Klintmalm GB. *Transplantation of the Liver.* 3rd ed. Philadelphia: Elsevier Saunders; 2015.
4. Tzakis AG, Todo S, Starzl TE. Orthotopic liver transplantation with preservation of the inferior vena cava. *Ann Surg.* 1989;210(5):649–652.
5. Belghiti J, Noun R, Sauvanet A, Durand F, Aschehoug J, Erlinger S. Liver transplantation by preservation of the inferior vena cava: Piggyback technique. *Ann Surg.* 1992;216(6):686–693.
6. Strong RW, Lynch SV, Ong TH, Matsunami H, Koido Y, Balderson GA. Successful liver transplantation from a living donor to her son. *N Engl J Med.* 1990;322(21):1505–1507.
7. Broering DC, Wilms C, Lenk C, et al. Technical refinements of the piggyback technique in liver transplantation. *Transplant Proc.* 2001;33(7–8):3419–3420.
8. European Association for the Study of the Liver (EASL). *EASL Clinical Practice Guidelines: Liver transplantation.* *J Hepatol.* 2016;64(2):433–485.

QOBILIYAT VA IMKONIYATNI IFODALOVCHI MODAL FE'LLAR

**University of economics and
pedagogy NOTM Xorijiy tillar
kafedrası v.b.dotsenti Nishonov
Ismoiljon va Xorijiy tillar kafedrası
o'qituvchisi Abduxalimov
Abdulaziz Abdumutal o'g'li**

Annotatsiya: Mazkur ishda qobiliyat va imkoniyat ma'nolarini ifodalovchi modal fe'llarning semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz tilidagi can, could, may, might kabi modal fe'llarning nutq jarayonida shaxsning ichki qobiliyati, tashqi sharoitga bog'liq imkoniyati hamda ehtimollikni ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ushbu modal fe'llarning o'zbek tiliga tarjimadagi muqobillari va ma'no nozikliklari qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Natijada modal fe'llarning kommunikativ vazifasi va ularning til tizimidagi ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so'zlar: modal fe'l, qobiliyat, imkoniyat, can, could, may, might, ehtimollik, semantika, tarjima, qiyosiy tahlil

“Can” va “May” modal fe'llari shart va xohish-istak mayl formalariga ega. Ularning buyruq mayli hozirgi va o'tgan zamon formalarida ifodalanadi.

Xohish-istak mayli formasi buyruq maylidagi o'tgan zamon formasiga omonimdir. (Could, might)

“Can” modal fe'li quyidagilarni ifodalaydi:

- Real imkoniyat, jismoniy qobiliyatni bu holda “can” infinitivning noperfekt formasi bilan qo'llaniladi:

Present

He can translate, can not he?

It is wonderful how little a man can do alone.

But limited minds can recognize limitations only in others

Past

I could hear his voice so I knocked

At any rate he knew he could write it better now.

He could not walk very fast.

“Can” modal fe'lining ekvivalenti jismoniy qobiliyat ma'nosida “to be+infinitive” bo'ladi.

“Yet he was unable to move”. (U hali ham qimiray olmasdi).

Voqelikni sharotidan kelib chiqqan holdagi taxminiy imkoniyatni ifodalaydi. Bu holda infinitivning noperfekt formasi bilan qo‘llanishda “can” kelajakda bo‘ladigan taxminni ifodalaydi.

“What time is it? She asked”. “Quarted to one”, said Yates. “We can in Luxemburg tonight”. (Bugun kechqurun Lyuksemburgda bo‘lishimiz kerak).

Shart maylini “could” ifodalaydi: infinitivning noperfekt formasi bilan past darajadagi taxminga imkoniyat berilganligi, ba‘zan xushmuomala bilan so‘rashni ifodalaydi¹.

“Could you do it for me?” (Menga shuni qilib bera olasizmi?)

“If I have to give an answer right this minute the answer obviously is no, but if you could wait», he went on, «I wouldn’t ask for anything more”. (Agar kuta olganingda, davom etdi u, men boshqa xech narsa so‘ramagan bo‘lardim).

Perfekt bilan qo‘llanilganda “could” haqiqatda bo‘lmagan, hayol qilingan imkoniyatni ifodalaydi.

“You could have told me about long before”. (Buni menga avvalroq aytsangiz bo‘lar edi).

“Can” (could) modal fe‘llari infinitiv perfekt formasi bilan birgalikda bir ishni qilishda (odatda inkor gaplarda) imkoniyat bo‘lishiga shubha borligini ifodalaydi.

“Can” bilan birgalikda (buyruq mayli), “Could” formasidan ko‘ra (shart mayli) past darajadagi shubhani ifodalaydi.

“I should think there never can be have been a man who enjoyed his profession more than Mr Creakle did”. (Hech qachon Mister Kriklddek kasbidan xursand odam bo‘lmagan bo‘lsa kerak deb o‘ylardim).

“And, indded, she did feel there was something deep in it, though she couldn’t have put the feeling into words”. (U baribir xissiyotlarini so‘z bilan ifodalay olmasa ham, uning his tuyg‘ularida chuqur bir narsa bor edi).

“He was not old, he could not have been more than forty”. (U qirqdan oshmagan bo‘lsa kerak).

“May” modal fe‘li.

“May” fe‘li “Can”dan farqli ravishda, real qobiliyat yoki imkoniyatni o‘zini emas, balki taxmin yoki imkoniyatga yo‘l qo‘yilganligini ifodalaydi.

1. Imkoniyatga yo‘l qo‘yilganligi; ma‘lum bir sharoitda imkoniyatga hech qanday hayratli narsa yo‘qligini bildirib turadi. Agar sodir bo‘lsa, hech hayron bo‘ladigan joyi yo‘q.

¹Maugham S. The Moon and Sixpence. – Moscow: Penguin books, 1975. – P. 266.

“Friends may meet, but mountains never”. (Do ‘stlar uchrashishlari mumkin, lekin tog ‘lar yo ‘q)².

“A few moments may change our character for life”. (Bir necha daqiqalar hayotdagi rolimizni o ‘zgartirib yuborishi mumkin).

Farqi:

“May” va “Can” (real imkoniyat va imkoniyatga yo‘l borligi).

“You may break the body, but you can not break the spirit”. (Sen tanani sindirishing mumkin, lekin ko ‘ngilni buza olmaysan).

“Very” - is an adverb of degree and may modify an adjective or an adverb: but it can not modify a verb. (Very – sifat yoki ravishni anglatishi mumkin, lekin fe‘lni anglatmaydi).

“A fool may ask more questions than a wise man can answer”. (Axmoq donodan javob bera olishdan ko ‘ra ko ‘proq savol berishi mumkin).

“May” fe‘lining ma‘nolaridan biri bu ruxsat, hodisaning sodir bo‘lishiga imkoniyat borligini bildiradi.

“May I come in? certainly you may”. (Kirsam maylimi? Ha mumkin.).

2. Ishonchsiz bo‘lgan taxmin (maybe, perhaps, possibly): «Erik says that you may be coming to New York». (Erik seni Nyu Yorkka kelishing mumkin deyapti).

“He may be in the house now, said he cabman”. (U hozir balki uydadir, dedi aravakash).

“May” ning bu ma‘nosi infinitivning davomiy ko‘rinishdagi formasida, shuningdek davomiy ko‘rinishda qo‘llanilmaydigan (to be, to happen) fe‘l infinitivi oddiy formasida yaqqol ko‘rinadi:

“He must be at home” - ishonch.

“He may be at home” - ishonchsizlik alomatlari bo‘lgan taxmin.

Yuqori darajali taxmin ma‘nosi quyidagi birikmalar bilan ifodalanishi mumkin.

“To be sure” + infinitive

“To be certain” + infinitive

“But he is sure to marry her” (Lekin u albatta unga uylanadi).

“Later they had thought he was certain to die”. (Keyinroq uni o‘limga maxkum deb o‘ylashardi).

Taxmin ma‘nosi “to be likely + infinitive” birikmasi bilan ifodalanishi mumkin.

“I’m not likely to see you again, he said slowly” (Men seni yana ko ‘rmasam kerak).

“May” taxmin ma‘nosida infinitiv perfekt formasi bilan qo‘llaniladi.

²Maugham S. The Moon and Sixpence. – Moscow: Penguin books, 1975. – P. 266.

“I may have spoken a bit too strongly, said David”. (Men oz-moz o‘tkirroq gapirib yuborgan bo‘lishim mumkin).

“Might” birikmasi (shart mayli formasidagi “may” fe’li) infinitiv noperfekt formasi bilan tasodifiy imkoniyatga yo‘l qo‘yilganligini anglatadi (balki, shunday, bo‘lishi mumkin).

“*He said he might be coming in*”. (U kelib qolishi mumkinligini aytdi).

“*Might? said Erik bitterly*”. “*Was that all he said?*”. (Mumkin? dedi Erik achchiqlanib. Bu aytganlarni hammasimi?)

“*Does it ever strike you that I might be interested*”. (Qiziqib qolishim mumkinligi hayolingga kelmadimi?)

Farqi: “May” – “Might”

“*Don’t waste the money. Time may come when you might need it*”. (Pulni bekorga sarflama! Sen unga muxtoj bo‘lib qoladigan payt kelishi mumkin).

Farqi: “Could” – “Might”

“*I could earn a dollar and a half a day, common labour and might get in as instructor. I say “might” mind you, and I might be chucked out for sheer inability*”.

(Men yarim kunda umumiy ish ko‘rsatuvchi sifatida bo‘lishim mumkin edi va bir dollar ishlay olardim. Men “mumkin” deganimga ahamiyat ber. Picha qobiliyatsizligim uchun aldanib qolishim mumkin edi)³.

“Might” infinitiv noperfekt formasi bilan birgalikda ishning sodir bo‘lishiga ruxsat so‘rashni ifoda qiladi.

“*Might I see your wife for a minute?*” (Xotiningni bir daqiqaga ko‘rsam maylimi?)

“Might” infinitiv perfekt formasi bilan birgalikda ishga imkoniyatni o‘ylab ko‘rishni, shuningdek yuqori darajadagi noaniq va shubhali taxmini ifodalaydi. (Kim biladi, balki shunday).

“*A man who might have made an admirable ambassador in the seventeenth century is unlikely to prove anything but a laughing – stock today*”. (Kim biladi o‘n yettinchi asrda qoyilmaqom bo‘lgan kishi hozir kulgi bo‘lishdan boshqa hech narsani isbotlay olmasa kerak).

“*Somebody might have found us in the end*”. (Balki bizni kimdir oxirida topgan bo‘lishi mumkin)⁴.

“*I’ve been wondering where I might have heard it*”. (Qayerda buni eshitgan bo‘lishim mumkinligiga hayronman). “*I don’t know how long the silence lasted. It might have been for half an hour*”. (Bilmayman bu sukunat qancha davom etdi, balki yarim

³William W. Dad. – New York: Penguin books, 1987. – P. 311.

⁴Buranov J. Ingliz tili grammatikasi. – Tashkent: “O‘qituvchi”, 1973. – B. 84.

soatdir). Infinitiv perfekt formasi bilan “might” birikmasi sodir bo‘lishning imkoniyati yo‘q, taxmin qilingan ishni ham ifodalash mumkin.

“Had she fourteen instead of twenty four, she might have been changed by then”. (Yigirma to‘rt emas, qirq bo‘lsa ham, uni o‘shanda o‘zagartirish mumkin edi).

“To be to+infinitive”

Ba‘zan ish – harakatni amalga oshirishda imkoniyat ma‘nosini majhul nisbat formasida infinitiv birikmasida “to be to” fe‘li bilan ham ifodalash mumkin.

“The book is to be found at any bookstore”. (Bu kitobni har qanday kitob bo‘limidan topish mumkin). Binobarin shu birikma zaruriyatni ifodalash mumkin, bu holda kontekstni hisobga olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Maugham S. The Moon and Sixpence. – Moscow: Penguin books, 1975. – P. 266.
2. Buranov J. Ingliz tili grammatikasi. – Tashkent: “O‘qituvchi”, 1973. – B. 84.
3. William W. Dad. – New York: Penguin books, 1987. – P. 311.
4. Abdulaziz Abduxalimov. Ingliz tili modal fe‘llarining tipologik talqini // ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК Actual Problems of Humanities and Social Sciences. Volume 5– 2025, – P. 183-188

MILLIY KO‘YLAK VA LOZIMNING ANDOZASINI TAYYORLASH, GAZLAMAGA JOYLASHTIRISH VA BICHISH

Angor tuman 2- son texnikumi Ishlab chiqarish ta’lim ustasi

Tikuvchilik yo‘nalishi o‘qituvchisi **Xalilova Laylo**

layloxalilova83@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek milliy kiyimlarining muhim turlari bo‘lgan milliy ko‘ylak va lozimning andozasini tayyorlash, gazlamaga joylashtirish hamda bichish jarayonlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Milliy liboslarni yaratishda foydalaniladigan an’anaviy bichim usullari, antropometrik o‘lchamlarni olish qoidalari, gazlama xususiyatlarini hisobga olish, naqsh va rang uyg‘unligini ta’minlash masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, milliy kiyimlar dizaynida zamonaviy texnologiyalar va an’anaviy tajribalar uyg‘unligi asoslab berilgan.

Аннотация

В статье подробно анализируются этапы построения выкроек национального платья и лозима, их размещение на ткани и процесс раскроя. Рассмотрены антропометрические особенности, традиционные методы кроя, а также вопросы рационального использования ткани. Особое внимание уделено сохранению национального стиля при применении современных технологий швейного производства.

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the processes involved in preparing patterns for national dresses and trousers, fabric layout, and cutting techniques. Traditional tailoring methods, anthropometric measurements, fabric characteristics, and efficient fabric utilization are examined. The study highlights the importance of preserving national identity while integrating modern sewing technologies.

Tayanch so‘zlar

Milliy libos, ko‘ylak, lozim, andoza, gazlama, bichish texnologiyasi, konstruksiya, tikuvchilik, an’anaviy kiyim.

Asosiy matn

Milliy kiyimlar xalqning tarixiy xotirasi va madaniy o‘zligini ifodalovchi muhim madaniy boyliklardan biri hisoblanadi. O‘zbek milliy ko‘ylagi va lozimi asrlar davomida xalqning ijtimoiy hayoti, iqlim sharoiti, estetik didi va turmush tarzi ta’sirida

shakllangan¹. Ushbu liboslar kengligi, qulayligi va funksionalligi bilan ajralib turib, kundalik hayotda ham, tantanali marosimlarda ham keng qo'llanilgan.

Milliy ko'ylak va lozimni tayyorlash texnologiyasi aniq ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi. Dastlabki bosqich – o'lcham olish bo'lib, bu jarayon kiyimning qulayligi va ergonomikasini ta'minlaydi. O'lcham olishda inson gavdasining antropometrik ko'rsatkichlari, yosh va tana tuzilishi inobatga olinadi. Ko'ylak uchun ko'krak aylanasi, yelka kengligi, bo'y uzunligi, yeng uzunligi asosiy o'lchamlar bo'lsa, lozim uchun bel, son va oyoq uzunligi asosiy mezon hisoblanadi. Andoza tayyorlash jarayoni milliy kiyimlarni tikishning eng muhim bosqichi bo'lib, u kiyimning shakli va konstruksiyasini belgilaydi. Milliy ko'ylak andozalari, odatda, to'g'ri va yarim erkin bichimda tuziladi. Bu esa kiyimni tanaga yopishib qolmasdan, harakat erkinligini ta'minlaydi. Lozim andozasi esa kenglik va qulaylikni hisobga olgan holda yuqori qismi keng, pastki qismi torroq qilib ishlab chiqiladi.

Gazlamaga joylashtirish jarayonida matoning eni, tolalar yo'nalishi, zichligi va naqsh xususiyatlari e'tiborga olinadi. Milliy liboslar uchun atlas, adras, shoyi, baxmal kabi tabiiy gazlamalardan foydalaniladi. Naqshli matolarda bezaklarning simmetrik va uyg'un tushishi estetik jihatdan katta ahamiyatga ega. To'g'ri joylashtirish orqali matodan tejab foydalanish va chiqindilarni kamaytirish mumkin. Bichish jarayoni yuqori aniqlikni talab qiladi. Andozalar gazlama ustiga joylashtirilib, maxsus tikuvchilik bo'rlari yordamida belgilab olinadi. So'ngra qaychi yoki zamonaviy kesish asboblari orqali ehtiyotkorlik bilan kesiladi. Bichish jarayonida xatoga yo'l qo'yilsa, kiyimning umumiy ko'rinishi buzilishi mumkin.

Bugungi kunda milliy kiyimlarni tayyorlashda zamonaviy tikuvchilik uskunalari va raqamli andoza tizimlari qo'llanilmoqda. Biroq milliy ko'ylak va lozimlarni tikishda an'anaviy bichim va bezak elementlarini saqlab qolish muhim² ahamiyatga ega. Bu esa milliy madaniyatning uzviyligini ta'minlaydi.

Milliy ko'ylak va lozim tayyorlashda tanlanadigan gazlama turi libosning umumiy sifati, qulayligi va estetik ko'rinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbek milliy kiyimlarida asosan tabiiy tolalardan tayyorlangan gazlamalar keng qo'llaniladi. Jumladan, atlas, adras, shoyi, paxta va baxmal matolari milliy liboslar uchun eng ko'p ishlatiladigan materiallar hisoblanadi. Ushbu gazlamalar o'zining mustahkamligi, havo o'tkazuvchanligi va tabiiyligi bilan ajralib turadi.

Atlas va adras gazlamalari rang-barang naqshlari va yorqin ranglari bilan milliy kiyimlarga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi. Ushbu matolardan tikilgan ko'ylaklar

Karimova, D. (2018). Milliy liboslar texnologiyasi. Toshkent: Fan.

bayram va tantanali marosimlar uchun mo'ljallanadi. Shoyi gazlamasi esa yengil va nafis bo'lib, harakat erkinligini ta'minlaydi. Paxta matolari kundalik kiyimlar uchun qulay bo'lib, gigiyenik jihatdan foydali hisoblanadi.

Gazlama tanlash jarayonida uning zichligi, cho'ziluvchanligi va tukli yoki tukli emasligi inobatga olinadi. Gazlamaning tolalar yo'nalishi noto'g'ri aniqlansa, bichish jarayonida kiyim shakli buzilishi mumkin. Shu sababli gazlama oldindan tekislanadi, dazmollanadi va andozalar to'g'ri yo'nalishda joylashtiriladi.

Milliy liboslarni bichish va tikishda uchraydigan xatolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari

Milliy ko'ylak va lozimni tayyorlash jarayonida ayrim texnologik xatolar yuzaga kelishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan xatolardan biri o'lchamlarning noto'g'ri olinishi hisoblanadi. Bu holat kiyimning tor yoki haddan tashqari keng bo'lib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun o'lcham olish jarayonida inson gavdasi holati, kiyiladigan ichki kiyim turi va tik turish holati e'tiborga olinishi zarur. Yana bir muhim xato andozani gazlamaga noto'g'ri joylashtirish bilan bog'liq. Naqshli gazlamalarda bezaklarning mos tushmasligi libosning estetik ko'rinishini pasaytiradi. Bunday xatolarning oldini olish uchun andozalar joylashtirilishidan avval gazlama ustida sinov joylashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Bichish jarayonida shoshqaloqlik qilish ham jiddiy muammolarga olib keladi. Qaychi noto'g'ri ushlansa yoki chiziqlardan chetga chiqilsa, detallar qayta ishlashni talab qiladi. Ushbu holatlarni oldini olish uchun bichish jarayoni bosqichma-bosqich va yuqori aniqlik bilan bajarilishi lozim.

Milliy kiyimlarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalarning o'rni:

Bugungi kunda milliy kiyimlarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Kompyuterlashtirilgan andoza tuzish dasturlari tikuvchilik jarayonini tezlashtirish va aniqligini oshirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida andozalarni saqlash, o'zgartirish va takomillashtirish mumkin.

Shuningdek, zamonaviy tikuv uskunalari yordamida milliy ko'ylak va lozimlarni yuqori sifatda va qisqa vaqt ichida tayyorlash mumkin. Biroq texnologik rivojlanish jarayonida milliy liboslarning an'anaviy shakli va bezak elementlarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Chunki milliy kiyimlar xalqning madaniy o'zligini ifodalovchi asosiy vositalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, milliy ko'ylak va lozimni tayyorlash jarayoni murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, unda andoza tuzish, gazlamaga joylashtirish va bichish texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonlarning ilmiy asosda tashkil etilishi milliy liboslarning sifatli, qulay va estetik jihatdan mukammal bo'lishini ta'minlaydi.

An'anaviy tajribalarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish milliy kiyimchilik san'atining rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimova, D. (2018). Milliy liboslar texnologiyasi. Toshkent: Fan.
- 2.Axmedova, M. (2020). Tikuvchilik asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
- 3.Rasulova, N. (2017). O'zbek milliy kiyimlari tarixi. Toshkent.
- 4.Umurzakova, S. (2019). National costume and cultural identity. Journal of Art and Design, 4(2), 45–52.
- 5.Ismoilova, G. (2021). Traditional clothing and modern design integration. Central Asian Culture Review, 6(1), 61–70.

**QADIMGI O‘ZBEKISTON HUDUDIDA AYOL OBRAZI: ARXEOLOGIK
YODGORLIKLAR VA MADANIY-DINIY QARASHLAR TAHLILI
ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ НА ТЕРРИТОРИИ ДРЕВНЕГО УЗБЕКИСТАНА:
АНАЛИЗ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ И КУЛЬТУРНО-
РЕЛИГИОЗНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ
THE IMAGE OF WOMEN IN ANCIENT UZBEKISTAN: AN ANALYSIS OF
ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS AND CULTURAL-RELIGIOUS
PERCEPTIONS**

Rajabova Nazira Shaxobovna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada qadimgi O‘zbekiston hududida ayol obrazining moddiy madaniyat yodgorliklarida aks etishi arxeologik va madaniy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bolaliktepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom, Afrosiyob va Ko‘ktepa yodgorliklarida topilgan haykalchalar, devoriy suratlar va terrakota buyumlari orqali ayolning diniy, ijtimoiy va estetik mavqei ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qadimgi jamiyatlarda ayol obrazi nafaqat go‘zallik timsoli, balki himoya, baraka, serfarzandlik va hayotiy barqarorlik ramzi sifatida shakllangan. Ushbu tasavvurlar keyinchalik xalq og‘zaki ijodi va milliy madaniy an’analarda davom etgan.

Kalit so‘zlar: ayol obrazi, qadimgi O‘zbekiston, arxeologik yodgorliklar, terrakota haykalchalar, diniy tasavvurlar, madaniy meros, gender munosabatlari

